

Destination **A2**

Vocabulary

Meanings & Example Sentences



Translator:
Zoir Akramov

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Muallifning Onlayn Ingliz Tili Kurslari.....	6
Unit 3. Family and Friends.....	8
Unit 6. Leisure Time.....	15
Unit 9. Sport.....	22
Unit 12. School.....	28
Unit 15. Work.....	35
Unit 18. Shopping.....	42
Unit 21. Customs and Traditions.....	48
Unit 24. Fashion.....	55
Unit 27. Places.....	63
Unit 30. Travel.....	69
Unit 33. Health and Fitness.....	75
Unit 36. Technology.....	81
Unit 39. Nature.....	87
Unit 42. Global Problems.....	93

KIRISH

Qadrli foydalanuvchi! Ushbu lug'at kitobi Mariya Verbitskoy, Malcolm Mann va Steve Taylore-Knowles tomonidan tuzilgan hamda elementary darajasidagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan "Destination A2" kitobining Vocabulary (= Lug'at) qismlaridagi barcha so'zlarning tarjimalarini o'z ichiga oladi.

Kitob Muallifi Haqida Qisqacha

Ushbu kitob muallifining to'liq ismi Zoir Akramov va 2002-yilda tavallud topgan. Kitob til o'rganuvchilariga taqdim etilgan vaqtda (2023-yil), muallif xalqaro darajada tan olingan IELTS baholash tizimi bo'yicha 8.0 ball egasi bo'lgan. Shunday ekan, kitobdagi deyarli barcha ma'lumot, tarjimalar hamda namunalarga ishonsa bo'ladi.

Sizning Fikringiz Biz Uchun Muhim!

Agarda siz ushbu kitobdan foydalanish jarayonida, qandaydir kamchilik yoxud xatoga duch kelsangiz, quyidagi manzil orqali muallif bilan bog'lanishingizni va xato haqida muallifga xabar berishingizni so'raymiz. Bundan tashqari, kitob haqidagi boshqa har qanday (tanqidiy va ijobiy) fikrlaringizni ham ushbu manzilga yuborishingiz mumkin. Sizning fikrlaringizni eshitishdan mamnun bo'lamiz va aynan sizning fikrlaringizga asoslangan holda kitob takomillashtirib boriladi.

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zair@gmail.com

Kitobdan To'g'ri Foydalanish

Kitobda eng birinchi inglizcha so'z va uning tarjimasi berilgan. So'zlarning birdan ko'proq tarjimalari ham keltirilgan holatlar mavjud va buning sababi, ba'zi so'zlar bir nechta ma'noga ega va turli xil gaplarda turli xil tarjimada kelishi mumkin. Har bir so'z uchun bittadan namunaviy gap va gapning tarjimasi ham ta'minlangan. Chunki til o'rganishning elementary boshqichida, so'zni shunchaki tarjimasinigina yodlash kutilgan natijani bermaydi. Ushbu bosqichda, so'zni amalda qanday ishlatishni ham o'rganib borish tavsiya etiladi. Har bir yangi so'zni namunaviy gaplar bilan o'rganish darkor. Shundagina, so'zning gapdagi o'rni haqida, va u boshqa qaysi so'zlar bilan birgalikda qo'llanila olishi haqida tasavvurga ega bo'lasiz. Aks holda, yodlagan so'zingiz tezda yoddan chiqib qoladi va uni amalda qo'llay olmaysiz. So'zni yanada uzoqroq muddat davomida yodda tutib qolish va uni writing (= yozish) jarayonida qo'llay olish uchun, har bir namunaviy gapga asoslangan holda, o'zingiz boshqa bir gap yozishingiz tavsiya etiladi. Misol tariqasida, "belong to someone" birikmasi uchun kitobda berilgan quyidagi namuna gapni olaylik: *Does this phone belong to you or is it Jane's?* – Bu telefon sizga tegishlimi yoki u Jeynnikimi? Ushbu namuna gap "belong to someone" birikmasi uchun ta'minlangan va ushbu birikmani yana ham yaxshiroq o'rganish uchun, siz berilgan namuna gapdagi ba'zi so'zlarni o'zgartirib, butunlay boshqacha bo'lgan o'zingizning yangi gapingizni tuzishingiz mumkin. "this phone" so'zlarining o'rniga "this watch" (ya'ni, "bu soat") so'zlaridan foydalanamiz; "Jane's" so'zining o'rniga boshqa bir ismdan, misol uchun "Mohinur's" ismidan foydalanamiz. Shunday qilib, tabriklaymiz, siz "belong to someone" birikmasidan foydalangan

holda o'z namuna gapingizni tuzdingiz va endi ushbu so'z sizning yodingizda uzoqroq muddat davomida qoladi: *Does this watch belong to you or is it Mohinur's?* – *Bu soat sizga tegishlimi yoki u Mohinurnikimi?*

Muallifning Boshqa Rejalari

Til o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan boshqa Destination seriyalari ham mavjud, xususan "Destination A1", "Destination B1", "Destination B2" hamda "Destination C1&C2". Hozirga qadar, "Destination A1", "Destination A2" va "Destination B1" kitoblaridagi lug'atlarning tarjimalari tayyorlangan va ularni @destination_vocabulary telegram kanalidan topishingiz mumkin. Til o'rganuvchilariga yordam berish hamda boshlagan ishimni yakunlab qo'yish maqsadida, qolgan 2 kitobning ham Vocabulary qismlaridagi so'zlarni ishonchli tarzda tarjima qilishni oldimga maqsad qilganman. Bundan tashqari, ko'rish qobiliyati jihatdan imkoniyati cheklangan do'stlarimiz uchun ushbu so'zlarning to'g'ri talaffuzlarini ham audio kitob tarzida ishlab chiqish; Destination kitoblarining har bir grammatik mavzusiga video darslar tayyorlash kabi ulkan maqsadlarim ham bor. Albatta, bularning bari vaqt talab etadi, ammo bir kun kelib siz-u men kabi ingliz tili o'rganuvchilariga sezilarli darajada foydasi tegadigan material tayyor bo'ladi.

Yana shuni ham sizga ma'lum qilishim joizki, 10-iyul kunidan boshlab, @destination_vocabulary telegram kanalimizda Destination kitoblaridagi grammatika va lug'at darslariga asoslangan testlar ham har kuni tashlab boriladi. Ularni bajarish orqali, siz bilimingizni sinab olishingiz va yangi ma'lumotlar o'rganishingiz mumkin bo'ladi. 21-avgustga qadar Destination A1 kitobidagi 42 ta unitning barchasi uchun test to'plamlari asosiy kanalimizda tayyor bo'ladi. Shundan so'ng, 21-avgustdan 1-oktabr sanasiga qadar Destination A2 kitobidagi 42 ta unitning barchasi uchun testlar yuboriladi va siz azizlar uchun tayyor holga keltiriladi. Va nihoyat, Destination B1 kitobining ham jami 42 ta uniti mavjud. Ushbu kitob uchun testlar 1-oktabr sanasidan 12-noyabrgacha har kuni telegram kanalimizga yuboriladi. Ulardan maroq bilan foydalanishingizni va olam-olam bilim o'rganishingizni tilaymiz. Omad!

Destination B2 tarjimalari

Hozirgacha bepul tarzda omma e'tiboriga havola etilgan "Destination A1 tarjimalari", "Destination A2 tarjimalari" hamda "Destination B1 tarjimalari" kitoblari sizga foydali bo'ldi va manzur keldi degan umiddamiz. Endilikda, 10-iyul sanasidan boshlab, "Destination B2 tarjimalari" kitobi ustida ishlashga start beriladi. Ammo, ushbu kitob bepul bo'lmaydi, aziz foydalanuvchilar! Muallif qilayotgan mehnatini qadrlagan holda, bir martalik **99,000** to'lov evaziga yopiq telegram guruhga qo'shiling. Ushbu yopiq telegram guruhdan (nomi: **Destination B2+**) nimalar kutish mumkin:

- Har haftada Destination B2 kitobidagi 1 ta vocabulary unitning to'liq tarjimalari;
- Destination B2 kitobidagi unitlarga asoslangan har kunlik testlar;
- Destination B2 mavzulari bo'yicha ba'zida jonli suhbat va yordam;
- 15-oktabr kuni to'liq "Destination B2 tarjimalari" faqatgina yopiq guruhga yuboriladi.

Telegram orqali bog'laning: @Zoirjon_Akramov

Diqqat!!! Ushbu kitob muallif (Zoir Akramov) mulki hisoblanadi va uni noqonuniy o'zlashtirib olish yoxud tarqatish qonuniy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Kitobdan maroq bilan foydalanishingizni tilaymiz!

MUALLIFNING ONLAYN INGLIZ TILI KURSLARI

Muallif onlayn tarzda ingliz tilini o'rgatishga o'zini bag'ishlagan va ingliz tilini o'rganishning har qanday darajasi uchun o'z kursi mavjud: Beginner, Elementary, Pre-intermediate, Intermediate, Upper-intermediate hamda IELTS kurslari. Shunday ekan, siz qulaygina uyingizni tark etmay, o'quv markaziga borish va kelish uchun hech qanday qimmatbaho vaqtingizni va energiyangizni sarflagamagan holda, ingliz tilini o'zingizga mos darajada, IELTS natijasi 8.0 bo'lgan o'qituvchidan o'rganishingiz mumkin (kelajakda natija ko'tariladi). Har oyning boshida yangi kurslar ochiladi va birinchi 3 dars sinov tariqasida o'tkaziladi, ya'ni birinchi hafta haq to'lamay dastlabki 3 darsni ko'rishingiz mumkin. Ushbu muddat davomida, siz kurs qay tartibda tuzilgani, nimalarga e'tibor berilishi, kurs darajasi sizga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lasiz, va eng ahamiyatlisi, onlayn ta'lim bilan o'quv markazlaridagi ta'limni bir-biriga solishtirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Har bir kursda grammatika, lug'at boyligini oshirishga, talaffuzni yaxshilashga, tekstlar bilan ishlashga hamda ingliz tilida eshitish, yozish, gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga birdek e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat rivojlantiriladi. Bizdagi onlayn darslar sifati o'quv markazlaridagi ta'lim sifatidan ortiq bo'lsa borki, sira kam emas!

Darslar sifatini baholash uchun hamda kursda ishtirok etish uchun, quyidagi telegram manzil orqali murojaat qilishingiz mumkin: @Zoir_Akramov

Malakali O'qituvchilarni Ishga Qabul Qilamiz

"SAEID AL HAZI" MChJ nomi ostidagi onlayn o'quv markazi xizmatlariga talab tobora oshib bormoqda va butun O'zbekiston hamda boshqa xorijiy mamlakatlardagi yurtdoshlarimiz bizning dars o'tish metodlarimizga tobora ko'proq qiziqish bildirishmoqda. Shu sababli, kompaniya doimiy ravishda kengayib bormoqda va bizga yangi mutaxassis ingliz tili o'qituvchilari zarur. O'quv markazimizda darslar avvaldan video tarzida yozib olingani bois, o'qituvchilar grammatik mavzularni o'quvchilarga jonli tarzda tushuntirib berishlari talab etilmaydi. Ammo, ularning boshqa **mas'uliyatlari** mavjud, shu jumladan:

- O'quvchilar vazifalarni doimiy ravishda bajarib borishini ta'minlash;
- O'quvchilar noodatiy tarzda vazifalarni bajarishni sustlashtirgan yoxud to'xtatib qo'ygan taqdirda, ularning ota-onasini xabardor etish va intizomiy chora ko'rilishini so'rash;
- Guruhdagi o'quvchilar orasida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish;
- O'quvchilardan har darsda jonli ravishda speaking olish;
- O'quvchilarning pronunciation, writing vazifalarini tekshirib, constructive feedback (written and/or verbal) berish;
- Har darsda, o'quvchilarning progressi to'g'risida hisobot tayyorlash;
- Vazifalarni namunali bajarib kelayotgan o'quvchilarni guruhda maqtash hamda munosib taqdirlash;
- Vazifalarni qoniqarsiz bajarib kelayotgan o'quvchilarga shaxsan (guruhda emas) dakki berish;

•O'quvchida mavzu bo'yicha savol yoxud tushunmovchilik tug'ilgan taqdirda, javob yoki izoh bilan ta'minlash.

O'qituvchi uchun Talablar:

1. Beginner va Elementary bosqichlardagi o'quvchilarni o'qitish uchun:

Minimum yosh chegarasi: 20

Ish tajribasi: talab etilmaydi

IELTS natijasi: 7.0+ (Listening/Reading eng kamida 7.0; Writing/Speaking eng kamida 6.0)

Ta'lim yo'nalishida universitetda o'qiyotgan yoki diplomi bo'lsa yaxshiroq.

2. Pre-intermediate va Intermediate bosqichlardagi o'quvchilarni o'qitish uchun:

Minimum yosh chegarasi: 20

Ish tajribasi: 1-2 yil (majburiy emas, ammo tajriba bo'lsa, ustunlik siz tomonda)

IELTS natijasi: 7.0+ (Listening/Reading/Writing/Speaking eng kamida 7.0)

Ta'lim yo'nalishida universitetda o'qiyotgan yoki diplomi bo'lsa yaxshiroq.

3. Upper-intermediate va IELTS bosqichlardagi o'quvchilarni o'qitish uchun:

Minimum yosh chegarasi: 20

Ish tajribasi: 1-2 yil (majburiy)

IELTS natijasi: 8.0+ (Listening/Reading eng kamida 8.0; Writing/Speaking eng kamida 7.0)

Ta'lim yo'nalishida universitetda o'qiyotgan yoki diplomi bo'lsa yaxshiroq.

Agar ma'lumotlaringiz yuqoridagi talablarga mos kelsa, o'z rezyumeyingizni quyidagi manzilga yuborishingiz va yanada to'liqroq ma'lumot bilan tanishishingiz mumkin:

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zair@gmail.com

Eslatma! Ish uchun nomzod ishga rasman qabul qilinishidan avval, unga nisbatan sinov muddati tayinlanadi hamda uning ish yuritishi tekshirib boriladi!

UNIT 3. FAMILY AND FRIENDS

Nouns

- ✓ **Aunt** - xola/amma
We only have one aunt-my mum's sister. – Bizning bor yo'g'i birgina xolamiz bor-oyimning singlisi.
- ✓ **Best friend** - eng yaxshi do'st
I met my best friend when we were five. – Men eng yaxshi do'stimni 5 yoshligimizda uchratganman.
- ✓ **Cousin** - amakivachcha, tog'avachcha, ammavachcha, xolavachcha
My aunt's children are my cousins. – Xolamning farzandlari mening xolavachchalarimdir.
- ✓ **Curly hair** - jingalak soch
Her sister has curly hair, but hers is straight. – Uning singlisining sochi jingalak, lekin o'ziniki silliq.
- ✓ **Dyed hair** - bo'yalgan soch
Look at that boy's dyed hair-it's red and green! – Anavi bolaning bo'yalgan sochiga qarang-qizil va yashil rangda ekan!
- ✓ **Straight hair** - silliq soch, tekis soch
Anne has straight hair, not curly hair! – Anning sochi silliq, zinhor jingalak emas!
- ✓ **Light hair** - och rangli soch
Your dad and mum have dark hair, but you have light hair. – Otangiz va onangizning sochlari to'q rangda, biroq sizniki och rangda ekan.
- ✓ **Dark hair** - to'q rangli soch
My brother has dark hair, but mine is fair. – Akamning sochi to'q rangli, lekin meniki och rangli.
- ✓ **Daughter** - qiz farzand
They have two sons and one daughter. – Ularning ikki o'g'il va bir qiz farzandi bor.
- ✓ **Grandchild** - nabira
Our son got married, and we'll have a grandchild soon. – O'g'limiz turmush qurdi, va tez orada biz nabiralik bo'lamiz.
- ✓ **Granddaughter** - qiz nabira
The old man looked after his granddaughter every summer. – Qariya har yozda nabira qiziga qarab turardi.
- ✓ **Grandfather** - bobo
Is the grandfather staying with you, your father's father? – Bobo sizlar bilan turibdilarmi, dadangizni otasi demoqchiman?
- ✓ **Grandmother** - buvi
Their grandmother taught them to swim. – Ularning buvisi ularga suzishni o'rgatgan.
- ✓ **Grandparent** - yoki bobo yoki buvi, ulardan biri tushuniladi
My grandparents are coming to stay at Christmas. – Bobom bilan buvim Rojdestvoda biznikida qolish uchun kelishyapti.
- ✓ **Grandson** - o'g'il nabira

Their son is having a boy-their first grandson! – Ularning o'g'li o'g'il farzandlik bo'lyapti-bu ularning birinchi o'g'il nabirasi!

- ✓ **Husband** - er
Where did you and your husband get married? – Siz va eringiz qayerda turmush qurgansizlar?
- ✓ **Neighbour** - qo'shni
Peter kicked his ball into the neighbour's garden. – Piter koptogini qo'shnisining bog'iga tepib yubordi.
- ✓ **Parent** - ota yoki ona, ulardan biri tushuniladi
Children usually ask their parents for advice. – Bolalar odatda ota-onalaridan maslahat so'rashadi.
- ✓ **Pen friend** - faqatgina xat orqali yozishadigan do'stingiz, odatda real hayotda ko'rishmagansiz chunki u olisda yashaydi
I write to my pen friend every week. – Men xatdoshimga har hafta xat yozib turaman.
- ✓ **People** - odamlar
There are many people in the park today. – Bugun parkda odamlar ko'p.
- ✓ **Secret** - sir
I can tell my best friend all my secrets. – Men eng yaxshi do'stinga barcha sirlarimni ayta olaman.
- ✓ **Son** - o'g'il farzand
John's son is six and his daughter is eight. – Jo'nning o'g'li 6 yoshda, qizi esa 8 da.
- ✓ **Surname** - familiya
I know your first name's Tony, but what's your surname? – Sizning ismingiz To'ni ekanligini bilaman, lekin familiyangiz nima?
- ✓ **Uncle** - tog'a/amaki
We only have one uncle-my mum's brother. – Bizning bor yo'g'i birgina tog'amiz bor-oyimning ukasi.
- ✓ **Wife** - xotin, jufti yor, rafiq
Michael's wife Judy works and he looks after their kids. – Mayklning xotini Jyudi ishlaydi va Maykl bolalariga qaraydi.

Verbs

- ✓ **Admire** - qoyil qolmoq
I admire my mum because she is good at her job. – Men oyimga qoyil qolaman chunki u o'z ishining ustasi.
- ✓ **Annoy** - asabiga tegmoq, jahlini chiqarmoq
It annoys me when my brother takes my toys. – Akam mening o'yinchoqlarimni olishlari asabimga tegadi.
- ✓ **Argue** - bahslashmoq, tortishmoq
I'm upset because I argued with my friend. – Men xafaman chunki do'stim bilan tortishib qoldim.
- ✓ **Believe** - ishonmoq

He says his dad's a footballer, but I don't believe him. – Uning aytishicha uning dadasi futbolchi ekan, lekin men unga ishonmayman.

✓ **Chat** - suhbatlashmoq

He chats with his friends about football. – U do'stlari bilan futbol to'g'risida suhbatlashadi.

✓ **Fight** - urushmoq

Don't fight with your brother. Try to be friendly. – Ukangiz bilan urushmang. Do'stona munosabatda bo'lishga harakat qiling.

✓ **Miss** - sog'inmoq

I miss my friends during the summer holidays. – Yozgi ta'til davomida men do'stlarimni sog'inaman.

✓ **Prefer** - afzal ko'rmoq

I prefer pizza to hamburgers. – Men gamburardan ko'ra pitsani afzal ko'raman.

✓ **Realise** - tushunib yetmoq, anglab yetmoq

Do you realise how important this exam is? – Bu imtihon qanchalar muhim ekanligini tushunyapsizmi?

✓ **Share** - baham ko'rmoq, bo'lishmoq, ulashmoq

Share your chips with your brother! – Chipslaringizni ukangiz bilan birga baham ko'ring!

✓ **Wave** - qo'l silkitmoq

As we were leaving, we waved goodbye. – Jo'nab ketar ekanmiz, qo'l silkitib xayrlashdik.

✓ **Wonder** - qiziqmoq, bilishni xohlamoq

I wonder why Aunt Judy didn't visit this year. – Jyudi xola bu yil nega kelmadi ekan-a?

Phrasal verbs

✓ **Bring up** - tarbiyalamoq, voyaga yetkazmoq

My parents worked, so my grandma brought me up. – Ota-onam ishlashardi, shuning uchun meni buvim tarbiyalaganlar.

✓ **Get on (well/badly) (with someone)** - (biron kim bilan) yaxshi munosabatda bo'lmoq/chiqisha olmaslik

I get on well with my sister—we have a great relationship. – Men singlim bilan yaxshi chiqishaman—o'rtamizdagi munosabat ajoyib.

✓ **Go on** - sodir bo'lmoq

There's a lot of noise next door—I wonder what's going on? – Yon qo'shnimiznikida rosa shovqin bo'lyapti—nima bo'layotgan ekan-a?

✓ **Grow up** - o'smoq, voyaga yetmoq

I grew up in a small town and left the minute I turned 18. – Men kichik bir shaharchada o'sib voyaga yetganman va 18 yoshga to'lgan zahotim u yerni tark etganman.

✓ **Look after** - vaqtinchalik qarab turmoq

Can you look after the baby while I go to the shops? – Men do'konga chiqib ketganimda chaqaloqqa qarab tura olasizmi?

Phrases

- ✓ **Agree with (someone/something)** - (biror kimning fikriga/biror narsaga) qo'shilmoq
I agree with Owen that we should go to the cinema. – Men Owenning fikriga qo'shilaman, kinoga borish kerak.
- ✓ **At present** - hozirgi paytda
At present, my sister is at university, but it's her final year. – Hozirgi paytda singlim universitetda, ammo bu yil uning oxirgi yili.
- ✓ **Belong to (someone)** - (biror kim) ga tegishli bo'lmoq
Does this phone belong to you or is it Jane's? – Bu telefon sizga tegishlimi yoki u Jeynnikimi?
- ✓ **Group of friends** – do'stlar
Is it better to have a big or small group of friends? – Ko'p do'stlarga ega bo'lish yaxshiroqmi yoki kam do'stlargami?
- ✓ **Have a chat/discussion** - suhbatlashmoq/muhokama qilmoq
I had a discussion with my parents about my future. – Men ota-onam bilan kelajagimni muhokama qilib oldim.
- ✓ **Have a great/good time** - vaqtni ajoyib o'tkazmoq, mazza qilmoq
We had a great time at the party—it was so much fun! – Biz ziyofatda ajoyib vaqt o'tkazdik—juda qiziqarli bo'ldi!
- ✓ **In love with (someone)** - (biror kim) bilan ishqiy munosabatda
He is still in love with his wife after all these years! – Shuncha yildan so'ng u hali ham xotinini sevadi!
- ✓ **Look like (someone/something)** - ko'rinishi jihatdan (biror kim/narsa) ga o'xshamoq
Peter looks like his dad—they both have dark hair and brown eyes. – Piter dadasiga o'xshaydi—ularning ikkovi tim qora soch va jigarrang ko'zlarga ega.
- ✓ **Talk about (someone/something)** - (biror kim/narsa) haqida gapirmoq
Are you talking about the film last night? Wasn't it great! – O'tgan tundagi film haqida gapiryapsizmi? Zo'r ekan-a!
- ✓ **Talk to (someone)** - (biror kim) bilan gaplashmoq
I want to talk to you about your bad behaviour yesterday. – Men kechagi yomon xulqingiz to'g'risida siz bilan gaplashib olishni istayman.
- ✓ **Think about (someone/something)** - (biror kim/narsa) haqida o'ylamoq
You're smiling—are you thinking about your holiday? – Siz jilmayyapsiz—ta'tilingiz haqida o'ylayapsizmi?

Adjectives and adverbs

- ✓ **Alike** - o'xshash
She and her dad are very alike. They have the same interests. – U va uning dadasi juda o'xshash. Ular bir xil qiziqishlarga ega.
- ✓ **Clever** - aqlli, zukko
Jim's very clever and always gets good marks. – Jim juda aqlli va har doim yaxshi baholar oladi.
- ✓ **Good-looking** - chiroyli, kelishgan
That film star is really good-looking. – Anavi kino yulduzi juda ham chiroyli.

- ✓ **Lazy** - dangasa, yalqov
His dog is so lazy-it sleeps all the time. – Uning iti juda yalqov-u har doim uxlaydi.
- ✓ **Married** - turmush qurgan: uylangan yoki turmushga chiqqan
Is your brother married to that woman? – Sizning akangiz o'sha ayolga uylanganmi?
- ✓ **Only** - yagona, yolg'iz
John is an only child and wants a brother or sister. – Jo'n yolg'iz farzand va u uka yoki singil xohlaydi.
- ✓ **Overweight** - ortiqcha vaznli, semiz
My uncle is overweight and needs to do more exercise. – Mening tog'am semizlar va ular ko'proq mashq qilishlari kerak.
- ✓ **Pale** - rangida rang yo'q, rangi oqarib ketgan
Don't stay long in the sun if you have pale skin. – Agar teringizning rangi oqargan bo'lsa, quyoshda uzoq turmang.
- ✓ **Similar** - o'xshash
My sister and I look similar, but have different characters. – Singlim va men o'xshash ko'rinamiz, lekin turli xarakterlarga egamiz.
- ✓ **Skinny** - ozg'in, oriqlar
I'm very skinny because I was ill. – Men juda oriqlarman chunki xasta edim.
- ✓ **Slim** - ozg'in va xushbichim (modellarga o'xshab)
The model was tall and slim. – Model baland bo'yli va xushbichim edi.
- ✓ **Special** - maxsus, boshqacha, alohida
Your birthday is a special day. – Tug'ilgan kuningiz boshqacha kun.
- ✓ **Tanned** - quyoshda toblangan, qoraygan
By the end of the beach holiday, we were all tanned. – Plyajdagi ta'tilning oxiriga kelib, hammamiz qoraygan edik.
- ✓ **Thin** - ozg'in
He's good at basketball because he's tall and thin. – U basketbol o'ynashda usta chunki u baland bo'yli va ozg'in.
- ✓ **Occasionally** - gohi-gohida
We occasionally go to London to see my aunt. – Biz gohi-gohida xolamni ko'rish uchun Londonga borib turamiz.
- ✓ **Rarely** - kamdan-kam
It rarely snows in the Sahara. – Sahara cho'lida qor kamdan-kam yog'adi.
- ✓ **Regularly** - doimiy ravishda
We go to the cinema regularly-about twice a month. – Biz doimiy ravishda kinoga borib turamiz-oyiga taxminan ikki marta.

Word formation

- ✓ **Agree** - fikriga qo'shilmoq
I totally agree with you! – Men sizning fikringizga butunlay qo'shilaman!
- ✓ **Disagree** - fikriga qo'shilmaslik

My brother says it's the best film ever but I disagree. – Akamning aytishicha, u kinolar ichida eng zo'ri ekan, ammo men uning fikriga qo'shilmayman.

- ✓ **Agreement** - kelishuv
Paul has an agreement with his mum to do the dishes every day. – Po'l har kuni idish-tovoqlarni yuvishiga doir kelishuvga ega onasi bilan.
- ✓ **Describe** - tasvirlamoq
Can you describe him to me? – Menga uni tasvirlab bera olasizmi?
- ✓ **Description** - ta'rif, tasvir
Can you give me a description of your sister so I know which girl she is? – Singlingiz qaysi qiz ekanligini bilishim uchun menga uning tasvirini bera olasizmi (= tasvirlab bera olasizmi)?
- ✓ **Discuss** - muhokama qilmoq
We need to discuss the situation at home. – Biz holatni uyda muhokama qilishimiz zarur.
- ✓ **Discussion** - muhokama
Let's have a discussion about where to go on holiday. – Keling ta'tilda qayerga borishni muhokama qilib olamiz.
- ✓ **Friend** - do'st
Jane's a friend of the family. – Jeyn oilamiz do'sti.
- ✓ **Friendship** - do'stlik
My friendship with John began when we were in school together. – Jo'n bilan do'stligim maktabda birga bo'lgan paytimizda boshlangan.
- ✓ **Friendly** - do'stona, muloyim
Don't be scared of the dog-it's very friendly. – Itdan qo'rqmang-u juda muloyim.
- ✓ **Unfriendly** - do'stona emas, qo'rs, qo'pol
That boy is very unfriendly-I said hello and he walked away. – Anavi bola juda qo'rs ekan-men unga salom degandim, u esa indamay ketib yubordi.
- ✓ **Happy** - xursand
You don't look very happy today. – Siz bugun juda xursand ko'rinmaysiz.
- ✓ **Unhappy** - xafa
Your teacher is unhappy with your low mark in the test. – O'qituvchingiz testdagi past bahoyingizdan xafa.
- ✓ **Happiness** - quvonch, xursandchilik, baxt
The girl smiled with happiness when she saw her present. – Qiz sovg'asini ko'rganda quvonchdan tabassum qildi.
- ✓ **Happily** - xursandchilik bilan
The children laughed happily as they played in the garden. – Bolalar bog'da o'ynashar ekan, xursandchilik bilan kulishdi.
- ✓ **Help** - yordam
I really appreciate your help. – Yordamingizni rosa qadrlayman.
- ✓ **Help** - yordam bermoq
Come and help me lift this box. – Kelib, menga mana bu qutini ko'tarishga yordamlashib yuboring.
- ✓ **Helpful** - foydasi tegadigan

My aunt was very helpful when I had a problem with maths. – Matematikadan qiynalgan paytlarimda, xolamni juda foydasi tekkan.

- ✓ **Unhelpful** - foydasi tegmaydigan

The map you drew me was completely unhelpful and I got lost. – Menga chizib bergan xaritamizning umuman foydasi tegmadi va men adashib qoldim.

- ✓ **Helpfully** - yordam berib, yaxshiyamki

Helpfully, John left instructions about how to turn on the computer. – Jo'n yordam berib, kompyuterni qanday yoqish haqida ko'rsatmalar qoldiribdi.

- ✓ **Like** - yoqtirmoq

I personally liked this song a lot. – Shaxsan menga bu qo'shiq rosa yoqdi.

- ✓ **Dislike** - yomon ko'rmoq, yoqtirmaslik

I dislike people telling me what to do-it's so annoying! – Odamlar menga nima qilishim kerakligini aytishini yoqtirmayman–bu juda asabga tegadi!

- ✓ **Alike** - o'xshash

Alex and Sam are so alike–they both love singing and dancing. – Aleks bilan Sem shunaqangi o'xshashki–ular ikkovi ham qo'shiq kuylab raqsga tushishni yoqtiradilar.

- ✓ **Mess** - kir va betartib holat

The kids made a mess in the bathroom. – Bolalar vannani yoyib tashlashibdi.

- ✓ **Messy** - kir va betartib

Your room's very messy. Go and tidy it up. – Xonangiz juda betartib–borib tartibga soling.

- ✓ **Person** - odam, shaxs

She's the only person I can talk to about my problems. – U muammolarim to'g'risida gapira oladigan yagona odam men uchun.

- ✓ **Personality** - shaxsiyat, xarakter

Jenny's got a great personality–she's so warm and friendly. – Jenni ajoyib xarakterga ega–u juda iliq va muloyim.

- ✓ **Personal** - shaxsiy

I never talk to people I don't know about my personal life. – Men hech qachon tanimaydigan odamlarimga shaxsiy hayotim to'g'risida gapirmayman.

- ✓ **Personally** - shaxsan

Personally, I think you need to find a new job. – Shaxsan men o'ylashimcha, siz yangi ish topishingiz kerak.

- ✓ **Real** - haqiqiy

Are those real flowers? – Bular haqiqiy gullarmi?

- ✓ **Unreal** - noreal, haqiqiy bo'lmagan

It feels unreal that I no longer have to go to school. – Bundan buyon maktabga borishga majbur emasligim haqiqiy emasdek tuyulyapti.

- ✓ **Reality** - haqiqat

In reality, the actor is very nice, but he always plays bad characters. – Haqiqatda, aktyor juda yaxshi, lekin u doim yomon ro'llarni o'ynaydi.

- ✓ **Realise** - anglab yetmoq, tushunmoq

I realise you worked very hard on this homework. – Tushunishim bo'yicha, bu uy vazifasi ustida rosa qattiq ishlabsiz.

✓ **Really** - juda

He looks unfriendly but he's really nice. – U ko'rinishidan do'stona emasdek, lekin u juda ham yaxshi odam.

✓ **Tidy** - tartibga solmoq, yig'ishtirmoq

I've tidied the bedroom and the bathroom. – Men yotoqxona hamda vannani yig'ishtirib qo'ydim.

✓ **Untidy** - betartib

Why is your bedroom so untidy? Pick up those clothes! – Nima uchun yotoqxonangiz bu qadar betartib? Anavi kiyimlarni yerdan oling!

✓ **Tidy** - tartibli

The room was clean and tidy. – Xona toza va tartibli edi.

✓ **Tidily** - tartib bilan

She put her clothes away tidily in the wardrobe. – U kiyimlarini shkafga tartib bilan joyladi.

✓ **Untidily** - betartiblik bilan

He went to school so untidily dressed that the head teacher sent him home. – U maktabga shu qadar betartiblik bilan kiyinib bordiki, direktor uni uyga yubordi.

UNIT 6. LEISURE TIME

Nouns

✓ **Activity** - mashg'ulot

Fishing is an activity anyone can do. – Baliq tutish istalgan odam qila oladigan mashg'ulot.

✓ **Art** - san'at

I love all art, but painting most of all. – Men hamma san'at turini sevaman, lekin hammasidan ham bo'yashni ko'proq.

✓ **Bicycle/Bike** - velosiped

Do you ride your bicycle to school? – Maktabga velosipedingizni minib borasizmi?

✓ **Camera** - kamera, fotoapparat

Can I take your picture with my new camera? – Yangi fotoapparatim bilan sizni rasmga olsam bo'ladimi?

✓ **CD (player)** - CD disk pleyer

My CD player doesn't play this pop music CD. – Mening CD disk pleyerim bu pop qo'shig'i diskini chalmaydi.

✓ **Cinema** - kinoteatr

John went to the cinema to watch a film on Friday. – Jo'n juma kuni kino tomosha qilish uchun kinoteatrga bordi.

✓ **Club** - klub, to'garak

My sister is in the chess club and plays every lunchtime. – Singlim shaxmat to'garagida va har tush vaqtida shaxmat o'ynaydi.

✓ **Concert** - konsert

My favourite band gave a concert in my town yesterday. – Mening yoqtirgan guruhim kecha shahrimda konsert berdi.

- ✓ **Drum** - baraban, do'mbira

The job of the drum is to keep the beat. – Do'mbiraning vazifasi ketma-ket ovozni ta'minlab berish.

- ✓ **DVD (player)** - DVD disk pleyer

The DVD player is broken so we can't watch the film. – DVD disk pleyer buzilgan, shuning uchun biz kinoni tomosha qila olmaymiz.

- ✓ **Film** - kino

My favourite kind of film is romantic comedy. – Mening yoqtirgan kino turim romantik komediya.

- ✓ **Free time** - bo'sh vaqt

Do you do any sports in your free time? – Bo'sh vaqtingizda qandaydir sport bilan shug'ullanasizmi?

- ✓ **Guitar** - gitara

My sister plays guitar in a rock band. – Singlim ro'k guruhida gitara chaladi.

- ✓ **Magazine** - jurnal

Do you know any good fishing magazines I can read? – O'qishim mumkin bo'lgan baliq tutish haqidagi qandaydir yaxshi jurnalni bilasizmi?

- ✓ **Member** - a'zo

Every member of the club must come to the meeting. – Klubning har bir a'zosi majlisga kelishi shart.

- ✓ **MP3 (player)** - MP3 pleyer

How many songs have you got on your MP3 player? – MP3 pleyeringizda nechta qo'shiq bor?

- ✓ **Music** - musiqa

What kind of music do you prefer, pop or rock? – Musiqaning qanday turini afzal ko'rasiz, pop yoki ro'k?

- ✓ **Piano** - pianina, fortepiano

Joanne plays the piano beautifully. – Jo'an pianinani chiroyli chaladi.

- ✓ **Television/TV** - televizor

Is there any good comedy on TV tonight? – Bugun oqshomda televizorda qandaydir yaxshi komediya beradimi?

- ✓ **Theatre** - teatr

The actor first performed in the theatre when she was ten. – Aktyor birinchi marta 10 yoshligida teatrdan chiqish qilgan.

Verbs

- ✓ **Act** - rol o'ynamoq

Who acts in this film? – Bu kinoda kim rol o'ynaydi?

- ✓ **Collect** - to'plamoq, yig'moq

Lee collects coins and has ones from all over the world. – Li tangalar to'playdi va unda butun dunyodan tangalar bor.

- ✓ **Dance** - raqs tushmoq
Nobody at the party is dancing because they dislike the music. – Bazmdagi hech kim raqs tushmayapti chunki ularga musiqa yoqmadi.
- ✓ **Fix** - tuzatmoq
My dad fixes my bike when it has a problem. – Qachonki velosipedimda muammo bo'lsa, otam uni tuzatadi.
- ✓ **Improve** - yaxshila(n)moq
You can improve at tennis if you practise a lot. – Agar ko'p shug'ullansangiz, tennisda yaxshilana olasiz.
- ✓ **Join** - qo'shilmoq
It costs £10 to join the karate club. – Karate to'garagiga qo'shilish 10 funt sterling turadi.
- ✓ **Perform** - ijro etmoq, namoyish etmoq
They performed the play in front of 200 people. – Ular 200 ta odam ko'z oldida spektaklni namoyish etishdi.
- ✓ **Play** - chalmoq (musiqa asbobi)
Can you play any musical instruments? – Qandaydir musiqiy asbobni chala olasizmi?
- ✓ **Sing** - kuylamoq
She takes voice lessons to help her sing better. – U yaxshiroq kuylashiga yordam berishi uchun ovozni yaxshilaydigan darslar oladi.
- ✓ **Visit** - tashrif buyurmoq
How often does your aunt from Miami visit you? – Mayamilik xolangiz qanchalik tez-tez siznikiga tashrif buyurib turadi?
- ✓ **Watch (TV/a programme)** - televizor/ko'rsatuvni tomosha qilmoq
I don't want to watch TV again tonight. – Bugun oqshomda yana televizor tomosha qilishni xohlamayman.

Phrasal verbs

- ✓ **Dress up (in fancy dress)** - mashhur inson/qahramon libosinikidek libos kiymoq
I'm dressing up as a rock star for the fancy dress party. – Men maskaradga (= odamlar qiyofani o'zgartirib boshqacha liboslarda boradigan kecha) ro'k yulduzidek kiyinib boraman.
- ✓ **Go out (with)** - (...bilan) ko'chaga aylanishga chiqmoq
Do you go out with your friends on Friday nights? – Siz juma tunlarida do'stlaringiz bilan tashqariga aylangani chiqasizmi?
- ✓ **Hang out/around (with)** - (...bilan) ko'p vaqt o'tkazmoq
The girls spent the day hanging out at the mall. – Qizlar kunni do'konda sarflab o'tkazishdi.
- ✓ **Laze around** - yalqovlik qilmoq, kam ish qilib ko'p dam olmoq
Ivan just lazed around doing nothing all Sunday. – Ivan butun yakshanba davomida hech narsa qilmay shunchaki yalqovlik qildi.
- ✓ **Take up** - odat sifatida boshlamoq
If you're bored, take up a new hobby. – Agar zeriksangiz, yangi hobbi boshlang.

Phrases

- ✓ **Be good at (something)** - (biron narsa qilish) da yaxshi bo'lmoq, usta bo'lmoq
Pat is very good at tennis and always beats me. – Pat tennisda juda usta va har doim meni mag'lub qiladi.
- ✓ **Belong to (a club/etc)** - (klub/va hokazo) ga a'zo bo'lmoq
We belong to a cycling club and go out on our bikes every Sunday. – Biz velosiped uchish klubiga a'zomiz va har yakshanba kuni velosipedimizda aylanishga chiqamiz.
- ✓ **Enjoy myself/yourself/etc** - mazza qilmoq
I really enjoyed myself at the pool–let's go again soon! – Basseynda juda mazza qildim–keling yaqin kunlarda yana boramiz!
- ✓ **Go horse-riding** - ot minishga bormoq
Joan doesn't want to go horse-riding as she thinks she'll fall off. – Jo'un ot minishga borishni xohlamaydi chunki u yiqilib tushaman deb o'ylaydi.
- ✓ **Go skateboarding** - skeytbord uchishga bormoq
Go skateboarding every weekend and you'll soon learn to go really fast. – Har dam olish kuni skeytbord uchishga boring va tez orada juda tez uchishni o'rganib olasiz.
- ✓ **Go to the cinema** - kinoga bormoq
Can we go to the cinema and watch that new action film? – Kinoga borib, yangi chiqqan jangari filmni ko'rsak bo'ladimi?
- ✓ **Listen to (something)** - (biron narsa) ni tinglamoq
What music are you listening to on your MP3 player? – MP3 pleyeringizda qanday musiqa tinglayapsiz?
- ✓ **Look at (someone/something)** - (biron kim/narsa) ga qaramoq
Look at Natasha running! Isn't she fast? – Natashaning yugurishiga qarang! U tezkor-a?
- ✓ **Ride a bike** - velosiped uchmoq
Everyone falls off a few times while they're learning to ride a bike. – Velosiped uchishni o'rganayotib hamma ham bir necha marta yiqilib tushadi.
- ✓ **Write a blog** - blog yuritmoq
Harry writes a blog about fishing and he has 500 readers! – Hari baliq tutish haqida blog yuritadi va uning 500 nafar o'quvchisi (= postlarni o'quvchilar) bor!

Adjectives and Adverbs

- ✓ **Beautiful** - chiroyli
The country is beautiful, with lots of forests and rivers. – Mamlakat ko'plab o'rmonlari va daryolari bilan chiroyli.
- ✓ **Classical** - mumtoz (musiqa): og'ir (musiqa)
I went to a classical music concert with my dad. – Men dadam bilan mumtoz musiqa konsertiga bordim.
- ✓ **Great** - ajoyib, zo'r
A great way to get fit is running–it's even better than cycling. – Jismonan tetiklikka erishishning ajoyib yo'li bu yugurishdir–u hattoki velosiped uchishdan ham yaxshiroq.
- ✓ **Pop** - po'p

Young people like pop music because it's easy to listen to. – Yoshlar po'p musiqasini yoqtiradi chunki u tinglashga oson.

✓ **Rock** - ro'k

I like rock music because I love the electric guitar. – Men ro'k musiqasini yoqtiraman chunki men elektrik gitarani sevaman.

✓ **Weekly** - haftalik

I listen to a weekly radio show about sailing every Sunday. – Men har yakshanba kuni qayiqda suzish sporti haqidagi haftalik radio shouni tinglayman.

✓ **Indoors** - ichkari(ga/da)

It's too hot out here-let's go indoors. – Tashqari haddan tashqari issiq-keling ichkariga kiramiz.

✓ **Outdoors** - tashqari(ga/da)

The band are playing their last concert outdoors, in the park. – Musiqiy guruh oxirgi konsertlarini tashqarida-parkda-ijro etishadi.

✓ **Recently** - yaqinda

The actor lived in London until recently, but he moved to LA. – Aktyor yaqin oragacha Londonda yashagan, lekin u Los Angelesga ko'chib o'tdi.

Word formation

✓ **Act** - rol o'ynamoq

She is acting the role of Juliet. – U Julietta rolini o'ynayapti.

✓ **Actor** - aktyor

My favourite actor plays in this film. – Mening sevimli aktyorim bu filmda o'ynagan.

✓ **Actress** - aktrisa

Jenny's an actress on TV. – Jeni televizorda aktrisa.

✓ **Acting** - rol o'ynash

Most of the acting in the show was excellent. – Shouda ro'l o'ynashlarning ko'pchiligi a'lo darajada bo'lgan.

✓ **Art** - san'at: asosan rassomchilik va haykaltaroshlik

It's a very beautiful piece of art. – U juda maftunkor san'at asari.

✓ **Artist** - rassom, musavvir

The art gallery offered to put on the artist's first show. – San'at galareyasi musavvirning ilk namoyishini tashkillashtirish taklifini berdi.

✓ **Artistic** - san'atda qobiliyatli, didli

Ursula's very artistic and likes painting. – Ersyula san'atda juda qobiliyatli va u rasm chizishni yoqtiradi.

✓ **Camp** - chodir ko'tarib, qisqa muddat davomida tabiat qo'ynida yashamoq

I camped overnight in a field. – Men keng maydonda bir kecha chodir ichida tunadim.

✓ **Camp** - chodir

Let's return to camp. – Keling chodirga qaytamiz.

✓ **Camper** - chodirchi, chodir tikib ta'til o'tkazadigan odam

Campers must not light fires near the tents. – Chodir tikib ta'til o'tkazayotganlar chodirlar yaqinida olov yoqmasliklari shart.

- ✓ **Camping** - ta'tilni tabiat qo'ynida chodir tikib o'tkazmoq, kemping
My family always goes camping because it's cheap. – Oilam doim kemping qiladi chunki bu arzon.
- ✓ **Campsite** - chodir tikish uchun mo'ljallangan hudud
The campsite could fit 500 tents and 100 caravans. – Chodir tikish uchun mo'ljallangan hudud 500 ta chodirni hamda 100 ta mashinaga ulangan vagonni sig'dira olardi.
- ✓ **Collect** - to'plamoq, yig'moq
He began collecting antiquities in 1785. – U antikvar buyumlar to'plashni 1785-yilda boshlagan.
- ✓ **Collection** - to'plam
Can I look at your stamp collection? – Markalar to'plamingizni ko'rib chiqsam bo'ladimi?
- ✓ **Collecting** - to'plash
Collecting toy cars is something I did as a child. – O'yinchoq mashinalar to'plash bolalik chog'imda qilgan narsam.
- ✓ **Collector** - yig'uvchi, biron narsa to'plovchi, kolleksioner
A serious collector can have coins worth thousands. – Jiddiy kolleksionerning bahosi minglarga teng tangalari bo'lishi mumkin.
- ✓ **Compete** - musobaqalashmoq, raqobatlashmoq
He regularly competes in races. – U doimiy tarzda poygalarda musobaqalashadi.
- ✓ **Competition** - musobaqa, raqobat
The winner of the competition gets a medal. – Musobaqa g'olibi medal oladi.
- ✓ **Competitive** - raqobatbardosh
Roger's very competitive and always wants to win. – Ro'jer juda raqobatbardosh va doim yutishni xohlaydi.
- ✓ **Entertain** - biron kimni ko'nglini chog' qilmoq
She entertained us with stories of her travels. – U sayohatlari haqidagi hikoyalari bilan bizni ko'nglimizni chog' qildi (= zeriktirmadi).
- ✓ **Entertainment** - o'yin-kulgi, sayr-tomosha
What's your favourite form of entertainment? Mine's the cinema. – O'yin-kulgining qaysi turi sizning sevimligingiz? Meniki kino.
- ✓ **Entertainer** - qiziqchi
We called a children's entertainer to hire him for the birthday party. – Biz tug'ilgan kun bazmi uchun yollash maqsadida bolalar qiziqchisiga qo'ng'iroq qildik.
- ✓ **Entertaining** - ko'ngilochar, qiziqarli, maroqli
It was an entertaining film that made me laugh quite often. – U meni rosa kuldirgan maroqli film edi.
- ✓ **Dance** - raqs tushmoq
Do you want to dance? – Raqs tushishni istaysizmi?
- ✓ **Dance** - raqs
The next dance will be a waltz. – Navbatdagi raqs vals bo'ladi.
- ✓ **Dancing** - raqs tushish

I like pop music because it's good for dancing. – Menga po'p musiqa yoqadi chunki u raqs tushish uchun yaxshi.

- ✓ **Dancer** - raqqos
Kate's sister is a dancer who performs in music videos. – Keytning singlisi musiqiy videolarda chiqadigan raqqosa.
- ✓ **Draw** - chizmoq
You draw beautifully. – Siz chiroyli rasm chizarkansiz.
- ✓ **Drawing** - rasm, surat (mo'yqalamda chizilgani); chizish
The artist did a drawing of me and my dog in pencil. – Musavvir qalam yordamida men va itimning suratimizni chizib berdi.
- ✓ **Interest** - qiziqish
Her main interests are music and tennis. – Uning asosiy qiziqishlari musiqa va tennisdir.
- ✓ **Interesting** - qiziqarli
Tell me more about the book—it's very interesting. – Kitob haqida ko'proq aytib bering—juda qiziqarli ekan.
- ✓ **Interested** - biron narsaga qiziqqan
Our son is interested in photography, so we bought him a camera. – O'g'limiz fotograflikka qiziqadi, shuning uchun unga fotoapparat sotib olib berdik.
- ✓ **Paint** - chizmoq
My mother paints well. – Oyim yaxshi rasm chizadilar.
- ✓ **Paint** - bo'yoq
The paint is starting to peel off. – Bo'yoq ko'cha boshlamoqda.
- ✓ **Painting** - rasm, surat (mo'yqalamda chizilgani)
There was a colourful painting of some flowers on the wall. – Devorda rang-barang gullar surati bor edi.
- ✓ **Painter** - rassom
Picasso was probably the greatest painter of the 20th century. – Pikasso 20-asrning eng buyuk rassomi bo'lgan bo'lsa kerak.
- ✓ **Photograph** - rasmga tushirmoq
He has photographed many other celebrities too. – U boshqa ko'plab mashhurlarni ham rasmga tushirgan.
- ✓ **Photograph** - rasm, surat (fotoapparatda olingani)
His photograph appeared in the local paper. – Uning surati mahalliy gazetada chiqdi.
- ✓ **Photographer** - fotograf
The photographer told us to smile so he could take our picture. – Fotograf bizni rasmga ola olishi uchun tabassum qilishimizni aytdi.
- ✓ **Photography** - rasmga tushirish san'ati
Photography is a cheap hobby now that there are digital cameras. – Hozirda raqamli kameralar mavjud bo'lgani sababli, fotograflik arzonlarov mashg'ulot.
- ✓ **Sing** - kuylamoq
She usually sings in the shower. – U odatda dush qabul qilayotganda kuylaydi.
- ✓ **Singer** - qo'shiqchi

Their brother is the singer in a rock band. – Ularning akasi ro'k guruhida qo'shiqchi.

✓ **Song** - qo'shiq

Do you write all the songs for your band? – Guruhingiz uchun barcha qo'shiqlarni o'zingiz yozasizmi?

UNIT 9. SPORT

Nouns

✓ **Basketball** - basketbol

It's good to be tall if you play basketball. – Agar basketbol o'ynasangiz, baland bo'yli bo'lish yaxshi.

✓ **Captain** - sardor, kapitan

Joe's the captain of the team, so on the pitch you listen to him. – Jo' jamoa sardori, shunday ekan maydonda unga quloq solasiz.

✓ **Coach** - murabbiy

The coach told me I have to be fitter to get on the team. – Murabbiy menga aytdiki, jamoaga kirishim uchun men baquvvatroq va sog'lomroq bo'lishim kerak ekan.

✓ **Competition** - musobaqa

Her grandson came first in the swimming competition. – Uning nabirasi suzish musobaqasida birinchi bo'lib keldi.

✓ **Fan** - muxlis, fonat

He is a huge fan and goes to every game they play. – U ashaddiy muxlis va ular o'ynaydigan har bir o'yinga boradi.

✓ **Football** - futbol

Football is the most popular team sport in the world. – Futbol dunyodagi eng mashhur jamoaviy sport.

✓ **Goal** - go'l

I scored a goal at the end of the game, so we won 1:0. – Men o'yin yakunida bitta go'l urdim, shuning uchun biz 1:0 hisobda g'alaba qozondik.

✓ **Gym** - sport zali

Sue goes to the gym to build up her muscles after the accident. – Syu halokatdan so'ng muskullarini chiniqtirish uchun sport zaliga boradi.

✓ **Hockey** - hakkey

In hockey, you can't raise your stick above the shoulder. – Hakkey o'yinida, tayoqchani yelkadan yuqoriga ko'tara olmaysiz (= taqiqlangan).

✓ **Ice skating** - muz ustida konkida uchish

I never go ice skating because I'm scared of slipping over. – Men hech qachon muz ustida konkida uchishga bormayman chunki men sirpalib tushishdan qo'rqaman.

✓ **Player** - o'yinchi

The best player on the team is Simon and he scores all the goals. – Jamoadagi eng yaxshi o'yinchi Saymen va barcha go'llarni u uradi.

✓ **Practice** - mashg'ulot, mashq

It takes practice to shoot baskets from so far away. – Savatchani bunday uzoqlikdan mo'ljalga olish ko'p mashq talab qiladi.

✓ **Prize** - sovrin, yutuq

The winner of the bike race won a prize of £5000. – Velosiped poygasining g'olibi 5000 funt sterlingga teng yutuq yutib oldi.

✓ **Race** - poyga

Ten runners are taking part in this ten-mile race. – Ushbu 10 milya uzunlikdagi poygada o'n nafar yuguruvchi qatnashmoqda.

✓ **Racket** - tennis raketkasi

The tennis player hit the ball so hard that he broke his racket. – Tennischi koptokchani shu qadar qattiq urdiki, u raketkasini sindirib qo'ydi.

✓ **Skiing** - chang'i uchish

Lots of people come to this mountain village in winter for skiing. – Ko'plab odamlar chang'i uchish uchun qishda ushbu tog'da joylashgan qishloqqa keladi.

✓ **Snowboarding** - snovbordda uchish

Snowboarding is a popular winter sport among skateboarders. – Snovbordda uchish skeytbordchilar orasida mashhur qish sporti.

✓ **Sports centre** - sport markazi: ichida turli-tuman sportlar bilan shug'ullanish mumkin

Liam joined the sports centre and goes there every day to use the gym or pool. – Liem sport markaziga qo'shildi va u yerga har kuni sport zali yoki basseyndan foydalanish uchun boradi.

✓ **Stadium** - stadion

The stadium was full of fans enjoying the match. – Stadion o'yindan mazza qilayotgan muxlislarga to'la edi.

✓ **Swimming** - suzish

Swimming is great exercise because it's hard to get injured in the water. – Suzish ajoyib mashq chunki suvda jarohat olish qiyin.

✓ **Table tennis** - stol tennisi

Table tennis is a great indoor sport played with two bats and a ball. – Stol tennisi ikkita tayoqcha va bitta koptokcha bilan bino ichida o'ynaladigan ajoyib sport turi.

✓ **Team** - jamoa

There are five players on a basketball team. – Bitta basketbol jamoasida besh nafar o'yinchi bo'ladi.

✓ **Tennis player** - tennischi

The biggest competition for a tennis player is probably Wimbledon. – Tennischi uchun eng katta musobaqa, ehtimol, Uimbldondir.

✓ **Ticket** - chipta, bilet

How much is a ticket for the football match tomorrow? – Ertangi futbol o'yini uchun chipta necha pul?

Verbs

✓ **Cancel** - bekor qilmoq

They cancelled the football match because it was raining so hard. – Futbol o'yinini bekor qilishdi chunki sharroz yomg'ir yog'ayotgandi.

✓ **Catch** - ushlab olmoq

You throw the ball and I'll catch it. – Siz to'pni uloqtirasiz, men esa uni ushlab olaman.

✓ **Cycle** - velosiped uchmoq

The plan was to cycle 50 miles, but my bike had a problem. – Reja 50 milya masofani velosipedda bosib o'tish edi, lekin mening velosipedimda muammo ro'y berdi.

✓ **Deserve** - munosib bo'lmoq

You were unlucky to lose. You deserved to win. – Mag'lub bo'lishingiz omadsizlik bo'ldi. Siz g'alaba qozonishga munosib edingiz.

✓ **Drop** - tashlab yubormoq, tushirib yubormoq

I threw the ball to him but he dropped it. – Men to'pni unga uloqtirdim, ammo u tushirib yubordi.

✓ **Encourage** - ruhlantirmoq, chorlamoq, da'vat qilmoq, undamoq

Our coach encouraged us to try a little harder. – Murabbiyimiz bizni biroz qattiqroq harakat qilishga undadi.

✓ **End** - tugamoq, yakunlanmoq

The match starts at five and ends at six forty-five. – O'yin soat 5 da boshlanadi va 6.45 da tugaydi.

✓ **Enter (a competition/race/etc)** - (musobaqa/poyga/va hokazoga) qo'shilmoq

You have to be under 16 to enter the race. – Poygaga qo'shilish uchun 16 yoshdan kichik bo'lishingiz lozim.

✓ **Push** - itarmoq

The other player pushed me away from the ball and I fell down. – Boshqa o'yinchi meni to'pdan nariga itarib yubordi va men yiqilib tushdim.

✓ **Reach** - yetib bormoq

Tony was tired when he reached the end of the race. – To'ni poyganing oxiriga yetganida, u charchagan edi.

✓ **Ride** - velosiped yoki mototsikl haydamoq; ot minmoq

The first time you ride a horse can be scary because they're big animals. – Birinchi marta ot minish qo'rqinchli bo'lishi mumkin chunki ular katta hayvonlar.

✓ **Roll** - yumalamoq, dumalamoq

The ball rolled slowly across the line and into the net. Goal! – To'p sekinlik bilan chiziq bo'ylab to'r ichiga dumaladi. Go'!

✓ **Score** - go'l urmoq, natija qayd etmoq

Sharon's our best player–she scored fifteen goals last year. – Sheron bizning eng yaxshi o'yinchimiz–u o'tgan yilda o'n beshta go'l urdi.

✓ **Select** - tanlamoq

I'm playing well at the moment, so the coach selected me for the team. – Men ayni damda yaxshi o'ynayapman, shuning uchun murabbiy jamoaga meni tanladi.

✓ **Shove** - turtkilamoq, turtib yubormoq

You can't shove the other player out of the way to get to the ball. – To'pga yetish uchun boshqa o'yinchini turtib yo'ldan olib tashlolmaysiz.

- ✓ **Skate** - konkida uchmoq
The ice hockey player skated fast towards the goal. – Hakkeychi tezlik bilan darvoza tomon uchdi.
- ✓ **Throw** - uloqtirmoq, otmoq
The basketball player threw the ball towards the basket. – Basketbolchi to'pni savat tomon uloqtirdi.
- ✓ **Touch** - ushlamoq, qo'l bilan teginmoq
Only the goalkeeper can touch the ball with their hand in football. – Futbolda faqatgina darvozabon to'pga qo'li bilan tegina oladi.
- ✓ **Watch (a game/match)** - (o'yinni) tomosha qilmoq
Let's go and watch the match in the stadium, not on TV. – Keling o'yinni borib stadionda tomosha qilamiz, televizorda emas.

Phrases

- ✓ **Congratulate someone on something** - biror kimni biror narsa bilan tabrikلامoq
The coach congratulated the team on winning the cup. – Murabbiy jamoani kubokni yutgani bilan tabrikladı.
- ✓ **Do judo/tae kwon do/karate/etc** - dzyudo/taekvando/karate/va hokazo bilan shug'ullanmoq
I do judo and I've got a black belt. – Men dzyudo bilan shug'ullanaman va mening qora belbog'im bor.
- ✓ **Football boots** - futbol butsalari (futbol o'ynash uchun mo'ljallangan oyoq kiyimlar)
My old football boots have got a hole near the toe. – Mening eski futbol butsalarimning barmoq qismida (= uchida) teshik bor.
- ✓ **Go skiing/snowboarding/surfing/etc** - chang'i uchishga/snovbordda uchishga/dengizda syo'rfing qilishga/va hokazo qilishga bormoq
We'll go skiing this weekend if it snows in the mountains. – Agar tog'da qor yog'sa, bu hafta oxirida chang'i uchishga boramiz.
- ✓ **In the end** - oxirida, so'ngida, oxir-oqibat
In the end we won the game, though it was really hard. – Qiyin bo'lishiga qaramay, oxir-oqibat o'yinda biz g'olib bo'ldik.
- ✓ **Lose a match/game/competition** - o'yinni/musobaqani boy bermoq, mag'lub bo'lmoq
We lost the match when the other team scored near the end. – Narigi jamoa yakunga yaqin qolganda go'l urgan vaqtda biz o'yinni boy berdik.
- ✓ **On TV** - televizorda (ko'rsatilmoq)
Is the match on TV tonight? – O'yin bugun oqshomda televizorda ko'rsatiladimi?
- ✓ **Play golf/football/baseball/etc** - golf/futbol/beysbol/va hokazo o'ynamoq
Can you play golf? It looks very hard. – Siz golf o'ynay olasizmi? U juda qiyin ko'rinadi.
- ✓ **Take part in (something)** - (biror narsa)da ishtirok etmoq
Fifty runners are taking part in the race. – Poygada ellik nafar yuguruvchi ishtirok etmoqda.
- ✓ **Win a match/game/competition** - o'yin/musobaqada g'olib bo'lmoq

We rarely win our matches, but we enjoy playing anyway. – Biz kamdan-kam holatda o'yinda g'alaba qozonamiz, ammo shunga qaramay o'ynashdan rohatlanamiz.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Exciting** - maroqli, ajoyib
What an exciting game! I don't know who's going to win! – Naqadar ajoyib o'yin-a! Bilmasam kim yutadi!
- ✓ **Fantastic** - ajoyib
The team was fantastic and won 5:0. – Jamoa ajoyib bo'ldi va 5:0 hisobda g'alaba qozondi.
- ✓ **Fast** - tezkor
Oscar's very fast and usually wins running races. – O'skr juda tezkor va odatda yugurish poygalarida g'olib bo'ladi.
- ✓ **Indoor** - bino ichidagi
The hotel has an indoor swimming pool, which is good when it's winter. – Mehmonxonada ichki basseyn bor va bu qish faslida yaxshi.
- ✓ **Outdoor** - ochiq havodagi, bino ichida bo'lmagan
I like to get fresh air, so I prefer outdoor sports. – Men toza havo olishni yoqtiraman, shuning uchun ochiq havoda bajariladigan sportlarni afzal ko'raman.
- ✓ **Popular** - taniqli
Football is a popular sport, with many people playing it or watching it. – Futbol mashhur sport turi bo'lib, uni ko'pchilik o'ynaydi yoki tomosha qiladi.
- ✓ **Strong** - kuchli
He's a strong swimmer who wins all the races that he enters. – U qo'shilgan barcha poygasida g'olib bo'ladigan kuchli suzuvchi.
- ✓ **First** - birinchi
The team that comes first in the competition wins a cup. – Musobaqada birinchi bo'lib kelgan jamoa kubokni yutadi.
- ✓ **Last** - oxirgi
She hurt her leg and came last in the race. – U oyog'ini shikastlab oldi va poygada oxirgi bo'lib keldi.
- ✓ **Well** - yaxshi
Wendy got on the team because she plays well. – Vendi jamoaga kirdi chunki u yaxshi o'ynaydi.

Word formation

- ✓ **Congratulate** - tabrikلامoq
I congratulated them all on their results. – Men ularning barini natijalari bilan tabrikladim.
- ✓ **Congratulations** - tabriklar (= tabriklayman)
Congratulations on winning the prize! – Sovrinni yutganingiz bilan tabriklayman!
- ✓ **Danger** - xavf
We weren't in any danger. – Biz hech qanday xavf ostida emasdik.
- ✓ **Dangerous** - xavfli

Snowboarding can be dangerous if you fall while going fast. – Agar tez ketayotganda yiqilib tushsangiz, snovbordda uchish sporti xavfli tus olishi mumkin.

- ✓ **Enter** - kirmoq
Someone entered the room behind me. – Kimdir mening ortimdan xonaga kirdi.
- ✓ **Entrance** - kirish joyi
The entrance to the stadium was full of fans. – Stadiona kirish joyi muxlislarga to'la edi.
- ✓ **Excite** - quvontirmoq
Nothing about my life excites me at present. – Hozirgi paytda hayotimdagi hech narsa meni quvontirmaydi.
- ✓ **Excitement** - xursandchilik, maroq, quvonch
The fans were full of excitement as the teams came out. – Jamoalar chiqar ekan, muxlislar quvonchga to'la edi.
- ✓ **Exciting** - ajoyib, maroqli
It was an exciting game, with four goals before the end of the first half. – Ajoyib o'yin bo'ldi, birinchi yarmi tugashidan avval to'rtta go'l urildi.
- ✓ **Excited** - xursand, zavq-shavqqa to'la
I'm very excited–I'm taking part in my first swimming competition today. – Men juda zavqlanib ketyapman–bugun men birinchi suzish musobaqamda ishtirok etyapman.
- ✓ **Fame** - mashhurlik, shon-shuhrat
She first rose to fame as a singer at the age of 16. – U ilk bor 16 yoshida qo'shiqchi sifatida mashhurlikka ko'tarildi.
- ✓ **Famous** - mashhur
Ronaldo's a famous football player who has won every cup you can imagine. – Ronaldo siz tasavvur qilishingiz mumkin bo'lgan har qanday kubokni yutgan mashhur futbolchi.
- ✓ **Lose** - yutqazmoq, mag'lub bo'lmoq
We lost to a stronger team. – Biz kuchliroq jamoaga yengildik.
- ✓ **Loser** - mag'lub
The winner of the final gets £300,000, but the loser gets some money too. – Final g'olibi 300,000 funt sterling oladi, lekin mag'lub ham ozgina pul oladi.
- ✓ **Play** - o'ynamoq
She has played in every game this season. – U ushbu mavsumdagi har bir o'yinda o'ynadi.
- ✓ **Player** - o'yinchi
There are eleven players on a football team. – Bitta futbol jamoasida o'n bir nafar o'yinchi bo'ladi.
- ✓ **Practice** - mashg'ulot, mashq
There's a basketball practice every Friday evening. – Har juma oqshomida basketbol mashg'uloti bor.
- ✓ **Practise** - mashq qilmoq, shug'ullanmoq
She's the best tennis player because she practises every day. – U eng yaxshi tennischi chunki u har kuni shug'ullanadi.
- ✓ **Ski** - chang'i uchmoq
Our children want to learn to ski. – Farzandlarimiz chang'i uchishni o'rganishni istashadi.

- ✓ **Skiing** - chang'i uchish
Skiing is a very popular winter sport. – Chang'i uchish juda mashhur qishki sport turi.
- ✓ **Train** - shug'ullanmoq
I train in the gym for two hours a day. – Men kuniga ikki soat sport zalida shug'ullanaman.
- ✓ **Training** - mashg'ulot
When Joe arrived late at training, the coach shouted at him. – Jo' mashg'ulotga kech yetib kelganida, murabbiy unga baqirdi.
- ✓ **Trainer** - trener, murabbiy
Paula's a trainer at a local gym. – Po'la mahalliy sport zalda trener.
- ✓ **Win** - yutmoq, g'olib bo'lmoq
Our team easily won the competition. – Bizning jamoa musobaqada osonlik bilan g'olib bo'ldi.
- ✓ **Winner** - g'olib
The winner of the competition held the cup above his head. – Musobaqa g'olibi kubokni boshi uzra ko'tardi.

UNIT 12. SCHOOL

Nouns

- ✓ **Board** - doska
The teacher wrote the homework up on the board. – O'qituvchi uy vazifasini doskaga yozdi.
- ✓ **Class(room)** - sinf (xonasi)
The kids had covered the walls of the classroom with their work. – Bolalar sinfxona devorlarini o'zlari tayyorlagan narsalar bilan qoplab chiqishgan edi.
- ✓ **Desk** - parta, o'quvchi stoli
The students were sitting at their desks writing an essay. – O'quvchilar o'z partalarida insho yozib o'tirgan edi.
- ✓ **Dictionary** - lug'at
Look up any words you don't know in your dictionary. – Bilmaydigan har qanday so'zlaringizni lug'atdan qidiring.
- ✓ **Exam** - imtihon
You must get 55% to pass the exam. – Imtihondan muvaffaqiyatli o'tish uchun 55% olishingiz shart.
- ✓ **Head teacher** - maktab direktori
His teacher sent him to the head teacher for talking in class. – Uning o'qituvchisi uni darsda gaplashgani uchun maktab direktoriga yubordi.
- ✓ **Homework** - uyga berilgan vazifa
Our teacher asked us to do some research on the Internet for homework. – O'qituvchimiz bizdan uy vazifasi uchun internetda biroz izlanish qilishimizni so'radi.
- ✓ **IWB (interactive white board)** - interaktiv doska
Our teacher made Julie go to the front of the class and write the answer on the IWB. – O'qituvchimiz Julini sinf oldiga olib borib, javobni interaktiv doskaga yozdirdi.
- ✓ **Language** - til

The English language is the language of business. – Ingliz tili tadbirkorlik tilidir.

- ✓ **Lesson** - dars
Our Maths lesson can be quite boring sometimes. – Matematika darsimiz ba'zida ancha zerikarli bo'lib turadi.
- ✓ **Library** - kutubxona
We can borrow three books from the library every week. – Kutubxonadan har haftada uchta kitob olib turishimiz mumkin.
- ✓ **Notebook** - daftar, qaydnoma
Write down these nouns in your notebooks. – Ushbu otlarni daftarlaringizga yozib oling.
- ✓ **Project** - loyiha, projekt, vazifa
Ivan is doing a project on growing fruit this term. – Ivan ushbu chorakda meva o'stirish ustida loyiha olib boryapti.
- ✓ **Pupil** - (faqatgina) maktab o'quvchisi
All the pupils in the class helped to get the class ready for parents' evening. – Sinfidagi barcha o'quvchilar sinfni ota-onalar kechasi uchun tayyorlashga yordam berishdi.
- ✓ **Report** - o'quvchining baholari to'g'risidagi hisobot (maktabda)
Peter's parents were pleased with his report—he got all A's! – Piterning ota-onasi uning baholari to'g'risidagi hisobotidan mamnun bo'lishdi—u faqat A baholari (= a'lo baho) olgandi!
- ✓ **School trip** - maktab tomonidan uyushtirilgan sayohat
The class went on a school trip to the science museum. – Sinf maktab tomonidan ilm-fan muzeyiga sayohatga bordi.
- ✓ **School uniform** - maktab formasi
The school uniform is black trousers, a white shirt and a blue tie. – Maktab formasi qora shim, oq ko'ylak va ko'k bo'yinboqdir.
- ✓ **Student** - o'quvchi: maktab o'quvchisi, universitet o'quvchisi, o'quv markazida biror narsa o'rganadigan o'quvchi, istalgan turdagi o'quvchi
There are thirty students in my class. – Mening sinfimda o'ttiz nafar o'quvchi bor.
- ✓ **Art** - tasviriy san'at fani (rassomchilik)
We learned how to draw faces in Art today. – Biz bugun tasviriy san'at darsida yuz tuzilishini qanday chizishni o'rgandik.
- ✓ **Biology** - biologiya
The Biology teacher is telling us about how plants grow. – Biologiya o'qituvchisi bizga o'simliklar qanday o'sishi haqida aytib beryapti.
- ✓ **Chemistry** - kimyo
Do you do real experiments in Chemistry? – Kimyo darsida haqiqiy tajribalar o'tkazasizlarmi?
- ✓ **Geography** - geografiya
I'm learning the capital cities of the world for a Geography test. – Men geografiya fanidan test uchun dunyodagi poytaxt shaharlarni o'rganyapman.
- ✓ **History** - tarix
We're doing the Second World War in History at the moment. – Ayni damda tarix darsida Ikkinchi Jahon Urushini o'tyapmiz.
- ✓ **IT (Information Technology)** - informatika texnologiyalari fani

Do you learn how to program in IT? – Informatika texnologiyalari fanida qanday qilib dasturlashni o'rganasizmi?

- ✓ **Literature** - adabiyot
We are studying Tolstoy's Anna Karenina in Literature. – Adabiyot fanida Tolstoyning Anna Karenina asarini o'rganyapmiz.
- ✓ **Maths** - matematika
We did some geometry in Maths today. – Bugun matematika darsida biroz geometriya o'rgandik.
- ✓ **Music** - musiqa
We're learning about opera in Music at the moment. – Ayni damda musiqa darsida opera haqida o'rganyapmiz.
- ✓ **PE (Physical Education)** - jismoniy tarbiya
In PE today, we played a game of football. – Bugun jismoniy tarbiya darsida biz futbol o'ynadik.
- ✓ **Physics** - fizika
I'm learning Newton's laws for my Physics test. – Men fizika fanidan testim uchun Nyuton qonunlarini o'rganyapman.
- ✓ **RE (Religious Education)** - diniy ta'lim asoslari
We learned about the life of the Prophet (PBUH) in RE today. – Bugun diniy ta'lim asoslari darsida biz Rasululloh (SAV) ning hayoti to'g'risida o'rgandik.
- ✓ **Social Science** - sotsiologiya (jamiyatni o'rganuvchi fan)
Social Science teaches us how people live with one another. – Sotsiologiya fani bizga insonlar bir-biri bilan qanday qilib yashashini o'rgatadi.
- ✓ **Term** - chorak (maktabda), semestr (universitetda)
At the end of Christmas term, we always give our teacher a present. – Rojdestvo choragining yakunida (= qishki kanikuldan avval), biz har doim o'qituvchimizga sovg'a beramiz.
- ✓ **Timetable** - o'quv jadvali, raspisaniya
Ronny's timetable is hard on Tuesdays—he has Maths and Physics. – Seshanba kunlari Ro'ning o'quv jadvali og'ir—matematika va fizika darsi bor.

Verbs

- ✓ **Answer** - javob bermoq
You haven't answered my question. – Mening savolimga javob bermadingiz.
- ✓ **Fail** - imtihondan yiqilmoq
Students who fail the test must take it again. – Imtihondan yiqilgan o'quvchilar uni qayta topshirishi shart.
- ✓ **Know** - bilmoq
I don't know the answer to that question. – U savolga javobni bilmayman.
- ✓ **Learn** - o'rganmoq
Our teacher makes us learn ten new verbs every week. – O'qituvchimiz bizni har hafta o'nta yangi fe'l o'rganishga majburlaydi.
- ✓ **Mark** - baholamoq

If you don't hand your homework in on time, I won't mark it. – Agar uyga vazifangizni o'z vaqtida topshirmasangiz, men uni baholamayman.

- ✓ **Match** - mos keladiganini topmoq

The exercise asks students to match pictures to vocabulary. – Ushbu mashq o'quvchilardan rasmlarga mos keladigan so'zlarni topishni so'raydi.

- ✓ **Mean** - ma'no anglatmoq

Find out what the word means by looking it up in a dictionary. – Lug'atdan qidirish orqali, so'z nima ma'no bildirishini toping.

- ✓ **Pass** - imtihondan muvaffaqiyatli o'tmoq

If I pass all my exams, my mum will buy me a new jacket. – Agar hamma imtihonlarimdan muvaffaqiyatli o'tsam, oyim menga yangi pidjak sotib olib beradilar.

- ✓ **Read** - (kitob, gazeta) o'qimoq

I love to read comics and magazines. – Men ko'mik kitoblar va jurnallar o'qishni yoqtiraman.

- ✓ **Remember** - yodda tutmoq, eslab qolmoq

We have to remember a lot of important dates for the History exam. – Tarix imtihoni uchun juda ko'p muhim sanalarni yodda saqlab qolishimiz kerak.

- ✓ **Teach** - o'qitmoq, o'rgatmoq

Our English teacher taught us the past tenses today. – Ingliz tili o'qituvchimiz bugun bizga o'tgan zamonlarni o'rgatdilar.

- ✓ **Tick** - ptichka (✓) qo'yib belgilamoq

Please tick the appropriate box. – Iltimos, tegishli katakchani belgilang.

- ✓ **Understand** - tushunmoq

I still don't understand how to make programs in IT. – Men hali-hanuz informatika texnologiyalari fanida qanday qilib dasturlar yaratishni tushunmayman.

- ✓ **Write** - yozmoq

We have to write an essay discussing a book we read in Literature. – Adabiyot darsida o'qigan kitobimizni muhokama qilgan holda bir insho yozishimiz kerak.

Phrasal verbs

- ✓ **Cross out** - biror xatoni ustidan o'chirmoq (x chiziq chizmoq)

When you make a mistake, just cross it out neatly. – Xatoga yo'l qo'yganingizda, shunchaki uni orastalik bilan ustidan chizib qo'ying.

- ✓ **Give/Hand in** - topshirmoq

Hand in your homework to me at the end of the lesson. – Dars yakunida uyga vazifangizni menga topshiring.

- ✓ **Give/Hand out** - tarqatmoq

The teacher handed out exam papers to the class. – O'qituvchi imtihon varaqalarini sinfga tarqatdi.

- ✓ **Put up (your hand)** - (qo'lini) yuqoriga ko'tarmoq

Put up your hand if you know the answer–don't shout it out. – Agar javobni bilsangiz, qo'lingizni yuqoriga ko'taring–uni baqirib aytib yubormang.

- ✓ **Rub out** - o'chirg'ich bilan o'chirmoq
Rub out the word that is spelled wrong and write it correctly. – Noto'g'ri harflar bilan yozilgan so'zni o'chirg'ich bilan o'chirib tashlang va uni to'g'rilab yozing.
- ✓ **Write down** - yozmoq, daftariga ko'chirib olmoq
Write down these adjectives in your notebooks. – Ushbu sifatlarni daftarlaringizga yozib oling.

Phrases

- ✓ **Arrive at school** - maktabga yetib bormoq
I arrive at school at nine in the morning. – Men maktabga tonggi soat 9 da yetib boraman.
- ✓ **At breaktime** - tanaffus vaqtida
At breaktime, my friends and I usually play football. – Tanaffus vaqtida, do'stlarim va men odatda futbol o'ynaymiz.
- ✓ **Correct/Make a mistake** - xatoni to'g'rilamoq/xato qilmoq
I made a mistake and answered the wrong question in the exam. – Men xatoga yo'l qo'ydim va imtihonda noto'g'ri (= boshqa bir) savolga javob berib qo'ydim.
- ✓ **Do homework** - uyga vazifani bajarmoq
Do you do your homework as soon as you get home? – Uyga yetib borishingiz bilanoq uyga vazifangizni bajarasizmi?
- ✓ **Do your best** - qo'lidan kelgancha zo'r bajarmoq
You don't have to get the top mark–just do your best. – Eng yuqori bahoni olishingiz shart emas–shunchaki qo'lingizdan kelgancha harakat qiling.
- ✓ **Drive (someone) to school** - (biror kimni) maktabga mashinada tashlab qo'ymoq
Does your mother drive you to school every morning? – Har tongda onangiz sizni maktabga mashinada tashlab qo'yadimi?
- ✓ **Get a good/bad mark** - yaxshi/yomon baho olmoq
I got a bad mark in Maths–just 45%. – Matematikadan yomon baho oldim–bor yo'g'i 45%.
- ✓ **Get to school** - maktabga bormoq
How do you get to school in the morning–by bus or car? – Tongda qanday qilib maktabga borasiz–avtobus orqalimi yoki mashinada?
- ✓ **Have a break/lesson** - tanaffus/dars bo'lmoq
They have a lesson with Mrs Evans at two o'clock. – Soat ikkida ularning Evens xonim bilan darslari bor.
- ✓ **In ink/pencil** - siyoh bilan (ruchkada)/qalamda
When you write in ink, you can't rub out your mistakes. – Ruchkada yozganingizda, xatolaringizni o'chirg'ich bilan o'chirib tashlalmaysiz.
- ✓ **Pay attention** - diqqat qaratmoq, e'tibor bermoq
I didn't pay attention to the teacher in class, so I couldn't do my homework. – Darsda men o'qituvchiga diqqatimni qaratmagandim, shuning uchun uyga vazifamni bajarolmadim.
- ✓ **Take the register** - davomat qilmoq, yo'qlama qilmoq, o'quvchi kelgan yoki kelmaganini belgilamoq

The teacher takes the register every morning to see who's absent. – O'qituvchi kim darsda yo'q ekanligini ko'rish uchun har tongda davomat qiladi.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Absent** - (darsga) kelmagan, yo'q, ishtirok etmayotgan
Carl was absent from school again today—is he sick? – Karl bugun yana maktabga kelmadi–u betobmi?
- ✓ **Complicated** - murakkab
A good teacher knows how to explain a complicated subject simply. – Yaxshi o'qituvchi qanday qilib murakkab bir mavzuni sodda tarzda tushuntirib berishni biladi.
- ✓ **Favourite** - sevimli
English is my favourite subject—I love it! – Ingliz tili mening sevimli fanim–u menga yoqadi!
- ✓ **Important** - muhim
Catherine the Great is an important figure in Russian history. – Buyuk Kasrin Rossiya tarixida muhim shaxsdir.
- ✓ **Intelligent** - aqlli, zukko
John's intelligent and always gets high marks. – Jo'n zukko va u doim yuqori baholar oladi.
- ✓ **Right** - to'g'ri
Does anyone know the right answer? – Kimdir to'g'ri javobni biladimi?
- ✓ **Serious** - jiddiy
My best friend is sick today. I hope it's nothing serious. – Mening eng yaxshi do'stim bugun betob. Umid qilamanki, bu jiddiy narsa emas.
- ✓ **Wrong** - noto'g'ri
I was so embarrassed when I gave the wrong answer to an easy question. – Oson savolga noto'g'ri javob berganimda juda uyali ketdim.
- ✓ **Right** - to'g'ri tarzda
Question 3 was really difficult, but I think I got it right. – 3-savol juda qiyin edi, lekin menimcha uni to'g'ri topdim.
- ✓ **Wrong** - noto'g'ri tarzda
If you get an answer wrong, you get zero. – Agar javobni noto'g'ri topsangiz, 0 olasiz.

Word formation

- ✓ **Apology** - kechirim, uzr
I think you should make an apology to your teacher for your rudeness. – O'ylashimcha, qo'polligingiz uchun o'qituvchingizdan uzr so'rashingiz kerak.
- ✓ **Apologise** - kechirim so'ramoq, uzr so'ramoq
Why should I apologise? – Nima uchun men uzr so'rashim kerak?
- ✓ **Begin** - boshlamoq
I began piano lessons at the age of six. – Men olti yoshimda pianino saboqlarini boshlaganman.
- ✓ **Beginner** - biror narsani o'rganishni endigina boshlagan odam

I'm only a beginner at tennis, so I'm not very good yet. – Tennisda bor yo'g'i boshlovchiman, shuning uchun hali juda usta emasman.

✓ **Beginning** - boshlanish

Tell me the story from the beginning. How did it start? – Hikoyani boshidan aytib bering. U qanday boshlandi?

✓ **Correct** - to'g'rilamoq

Read through your work and correct any mistakes that you find. – Ishingizni o'qib chiqing va topgan har qanday xatolaringizni to'g'rilang.

✓ **Correction** - to'g'rilash

I've made a few small corrections to your report. – Hisobotingizga bir nechta kichik to'g'rilashlar kiritdim.

✓ **Correct** - to'g'ri

"Your name is Angela Black?" "That is correct." – "Ismingiz Anjela Blek-a?" "Ha, to'g'ri."

✓ **Incorrect** - noto'g'ri

That's incorrect, Martin—the right answer is 25. – Bu noto'g'ri, Martin—to'g'ri javob 25.

✓ **Correctly** - to'g'ri tarzda

A tick shows you answered the question correctly. – Ptichka belgisi (✓) savolga to'g'ri javob berganingizni ko'rsatadi.

✓ **Incorrectly** - noto'g'ri tarzda

Of course the program doesn't work—you installed it incorrectly. – Albatta dastur ishlamaydida—uni noto'g'ri o'rnatgansiz.

✓ **Educate** - ta'lim bermoq

Films can entertain and educate, make you laugh or cry. – Filmlar ko'ngilni ko'tarishi va ta'lim berishi, kuldirishi yoki yig'latishi mumkin.

✓ **Education** - ta'lim

He got a good education in one of the best schools in the country. – U mamlakatdagi eng zo'r maktablardan birida yaxshi ta'lim olgan.

✓ **Educational** - tarbiyaviy, ta'limiy

We brought the children on an educational trip to the Science Museum. – Biz bolalarni Ilm-fan Muzeyiga bo'lgan ta'limiy sayohatga olib bordik.

✓ **Encourage** - ruhlantirmoq, qo'llab-quvvatlamoq, dalda bo'lmoq

"You're doing fine," he encouraged her. – "Yaxshi bajaryapsiz," deya yigit qizga dalda berdi.

✓ **Encouragement** - dalda, ruhlantirish, qo'llab-quvvatlash

Children need the encouragement of their parents to do well. – Bolalar yaxshi harakat qilishlari uchun ota-onasining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj.

✓ **Encouraging** - dalda bo'luvchi, ruhlantiruvchi, shijoatni oshiradigan

I try to be encouraging of my son's plans, even if I don't agree with them. – Men o'g'limning rejalariga dalda bo'luvchi bo'lishga harakat qilaman, hattoki rozi bo'lmasam ham.

✓ **Important** - muhim

Spending time with my children is important to me. – Farzandlarim bilan vaqt o'tkazish men uchun muhim.

✓ **Unimportant** - ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan

Your mark is unimportant to me as long as you do your best. – Qo'lingizdan kelgancha yaxshi harakat qilar ekansiz, bahoyingiz menga ahamiyatsiz.

- ✓ **Importance** - ahamiyat, muhimlilik
An education is of great importance to a child. – Ta'lim yosh bola uchun ulkan ahamiyatga ega.
- ✓ **Mean** - ma'no anglatmoq
What does this sentence mean? – Ushbu gap nima ma'no anglatadi?
- ✓ **Meaning** - ma'no
What is the exact meaning of the word? – So'zning aniq ma'nosi nima?
- ✓ **Spell** - so'zni harflab yozmoq yoki aytmoq: D-E-S-T-I-N-A-T-I-O-N
Can you spell your last name, please? – Familyangizni harflab ayta olasizmi, iltimos?
- ✓ **Spelling** - so'zning harflab yozilishi, imlo
This word has a different spelling in American and British English. – Bu so'z Amerika va Britaniya ingliz tilida turli xil yozilishga ega.
- ✓ **Study** - o'qimoq, tahsil olmoq
My brother studied photography at the Royal College of Art. – Mening akam Qirollik San'at Kollejida fotograflik bo'yicha tahsil olgan.
- ✓ **Student** - o'quvchi
Over 10,000 students attend that university. – 10,000 dan ziyod o'quvchilar u universitetga boradi.
- ✓ **Studies** - o'qish, o'rganish, tahsil olish
He's going to an American university to continue his studies. – U o'qishini davom ettirish uchun Amerikadagi universitetga ketyapti.
- ✓ **Teach** - o'qitmoq, dars bermoq
He teaches English to advanced students. – U yuqori darajadagi o'quvchilarga ingliz tilidan dars beradi.
- ✓ **Teacher** - o'qituvchi
His mother's a teacher at his school. – Uning oyisi u o'qiydigan maktabda o'qituvchi.

UNIT 15. WORK

Nouns

- ✓ **Boss** - boshliq, xo'jayin
Sean asked his boss if he could take Friday off work. – Sho'n boshlig'idan juma kuni ishdan dam olsam maylimi, deb so'radi.
- ✓ **Career** - karyera, ish faoliyati
You have to study hard if you want to go on to a career in law. – Agar huquqshunoslik sohasida faoliyat yuritishni xohlasangiz, qattiq o'qishingiz kerak.
- ✓ **Chance** - imkon, ehtimollik
Is there any chance of me getting a pay rise? – Maoshimni oshirish imkoni bormi?
- ✓ **Company** - kompaniya, korxona
The company Frank works for makes sports equipment. – Frenk ishlaydigan kompaniya sport jihozlari ishlab chiqaradi.

- ✓ **Difficulty** - qiyinchilik
You won't have any difficulty with the work. It's very simple. – Ish bilan hech qanday qiyinchilik bo'lmaydi. U juda oson.
- ✓ **Driving licence** - haydovchilik guvohnomasi
The driving licence for a lorry is much harder to get than the one for a car. – Yuk mashinasi uchun haydovchilik guvohnomasi olish mashinanikidan ancha qiyinroq.
- ✓ **Effort** - urinish, sa'y-harakat
If we make a real effort, we can get the work finished by Friday. – Agar rostmanasiga urinsak, ishni juma kunigacha tugata olamiz.
- ✓ **Engineer** - muhandis
The engineer who designed that machine did a wonderful job. – Ushbu mashinani yaratgan muhandis ajoyib ish qilgan.
- ✓ **Factory** - fabrika, zavod
Yuri works in the paint shop of a car factory. – Yuriy avtomobil zavodining bo'yoq sexida ishlaydi.
- ✓ **Job** - ish
His father's first job was cooking in a café. – Uning otasining birinchi ishi kafeda taom pishirish bo'lgan.
- ✓ **Journalist** - jurnalist
Roger works as a journalist for the local newspaper. – Ro'jer mahalliy gazetada jurnalist bo'lib ishlaydi.
- ✓ **Manager** - ish boshqaruvchi, menejer
I asked the manager for a day off on Monday. – Men ish boshqaruvchidan dushanba kuni dam olishni so'radim.
- ✓ **Mechanic** - mashina ustasi, mexanik
A mechanic is looking at my car at the moment. – Mexanik ayni damda mashinamga qarayapti.
- ✓ **Meeting** - uchrashuv; majlis
The boss held a meeting in his office this morning, but I was late! – Boshliq bugun ertalab ofisida majlis o'tkazdi, biroq men kech qoldim!
- ✓ **Money** - pul
She makes very good money in her new job. – U yangi ishida juda yaxshi pul topadi.
- ✓ **Newspaper** - gazeta
I read about the fire in the newspaper. – Men yong'in to'g'risida gazetada o'qidim.
- ✓ **Occupation** - bandlik; kasb
A good occupation for a caring person is nurse. – G'amxo'r inson uchun yaxshi kasb bu hamshiralik.
- ✓ **Office** - ofis
I work in an office and wear a suit and tie to work. – Men ofisda ishlayman va ishga kostyum-shim hamda bo'yinboq kiyaman.
- ✓ **Police officer** - politsiya ofitseri
The police officer stopped the car and asked for the driving licence. – Politsiya ofitseri mashinani to'xtatdi va haydovchilik guvohnomasini so'radi.
- ✓ **Staff** - ischi xodimlar

The restaurant staff are friendly and helpful. – Restoran xodimlari samimiy va foydali.

✓ **Type** - tur, xil

What type of person are we looking for to fill the position? – Ish o'rnini to'ldirish uchun qanday turdagi odamni qidiraymiz?

✓ **Work** - ish

Joe can't find work–do you know of a job he can do? – Jo' ish topolmayapti–u qila oladigan biror ish bilasizmi?

Verbs

✓ **Accept** - qabul qilmoq

They offered me the job and I accepted–I start on Monday! – Ular menga ishni taklif qilishdi va men qabul qildim–dushanba kuni ish boshlayman!

✓ **Build** - qurmoq

Our company is building 100 new houses. – Bizning kompaniyamiz 100 ta yangi uylar qurmoqda.

✓ **Call** - qo'ng'iroq qilmoq

Olive's not here yet–can you call her and see if she's all right? – Oliv hali bu yerda emas–unga qo'ng'iroq qilib, hammasi joyida ekanligini aniqlay olasizmi?

✓ **Carry** - olib yurmoq, ko'tarib bormoq

Can you carry some of these files? They're very heavy. – Mana bu fayllarning ba'zilarini ko'tarib bora olasizmi? Ular juda og'ir.

✓ **Complete** - yakunlamoq, bitirmoq

When we complete the project, I can relax. – Loyihani bitirganimizda, men dam ola olaman.

✓ **Create** - yaratmoq

My brother's job is to create websites for small companies. – Akamning ishi kichik kompaniyalar uchun vebsaytlar yaratishdir.

✓ **Drive** - avtomobil haydamoq

Steven can drive a car and he's learning to drive a van now. – Stiven mashina hayday oladi va u hozir furgon haydashni o'rganmoqda.

✓ **Earn** - pul ishlab topmoq

Do you earn more money in your new job than in the old one? – Yangi ishingizda eskisidan ko'ra ko'proq pul ishlab topasizmi?

✓ **Finish** - tugatmoq

We can leave when we finish the work. – Ishni tugatganimizda ketsak bo'ladi.

✓ **Lift** - ko'tarmoq

Don't lift that heavy box or you'll hurt your back! – U og'ir qutini ko'tarmang, aks holda belingizni shikastlab olasiz!

✓ **Manage** - boshqarmoq

How does she manage a company and bring up three kids? – U qanday qilib kompaniya boshqaradi va uchta bolani voyaga yetkazadi?

✓ **Please** - xursand qilmoq, mamnun qilmoq

It pleases me to see your work is getting better. – Ishingiz yaxshilanib borayotganini ko'rish meni mamnun qiladi.

✓ **Speak** - gapirmoq

Can you speak to Janine about her lateness, please? – Janin bilan uning kechikishi to'g'risida gaplashib qo'ya olasizmi, iltimos?

✓ **Start** - boshlamoq

The manager asked me if I could start the job on Monday! – Ish boshqaruvchi mendan ishni dushanba kuni boshlay olasizmi, deb so'radi!

✓ **Train** - shug'ullantirmoq

I have to train three new members of staff this week. – Bu hafta uch nafar yangi ishchi xodimni shug'ullantirishim kerak.

✓ **Try** - harakat qilmoq, urinmoq

She's trying hard to get the work finished on time. – U ishni o'z vaqtida tugatish uchun qattiq urinyapti.

Phrasal verbs

✓ **Get back** - qaytmoq

Their dad gets back from work at 8 pm. – Ularning dadasi ishdan kechki soat 8 da qaytadi.

✓ **Get up** - uyqudan turmoq

He works as a milkman, and gets up at 5 in the morning. – U sut tarqatuvchi bo'lib ishlaydi va tonggi soat 5 da uyqudan turadi.

✓ **Tidy up** - yig'ishtirmoq, tartibga solmoq, tozalamoq

She can't find anything on her desk, so she's tidying it up. – U stolidan hech narsani topa olmayapti, shuning uchun uni tartibga solyapti.

✓ **Wake up** - uyg'onmoq

He wakes up at 6 so he can catch the 7.30 train to work. – U ishga borish uchun 7.30 dagi poyezdga ulgurish uchun soat 6 da uyg'onadi.

Phrases

✓ **At work** - ishda

Don't call him at work—he's usually too busy to talk. – Ishdaligida unga qo'ng'iroq qilmang—u odatda gaplashish uchun o'ta band bo'ladi (= o'ta band bo'lganidan gaplasholmaydi).

✓ **Be able to do (something)** - (biror narsa) qila olmoq, qilishga qodir bo'lmoq

I'm afraid I won't be able to finish the work on time. – Ishni o'z vaqtida tugata olmayman deb qo'rqaman.

✓ **By myself/yourself/himself/herself/itself/yourselves/ourselves/themselves** - bir o'zi = yolg'iz, hech kimning yordamisiz

Did you do the work by yourself or did you have help? – Ishni bir o'zingiz bajardingizmi yoki yordam oldingizmi?

✓ **Decide on (something)** - (biror narsa) to'g'risida bir qarorga kelmoq, tanlamoq

We need to decide on which chairs to buy. – Qaysi stullarni sotib olishni tanlashimiz kerak.

- ✓ **Earn a living** - kun kechirishi uchun yetarli pul ishlab topmoq
Mike earns a living as a taxi driver. – Mayk taksi haydovchisi sifatida kun ko'radi.
- ✓ **Earn money** - pul ishlab topmoq
Do you earn a lot of money in your job? – Siz ishingizda ko'p pul topasizmi?
- ✓ **Make a living** - tirikchilik qilish uchun yetarli pul ishlab topmoq = **earn a living**
I don't want a job that makes me rich. I just want to make a living. – Men boy-badavlat qilib yuboradigan ish xohlamayman. Men shunchaki tirikchilik qilish uchun yetarli pul ishlab topishni istayman.
- ✓ **Make money** - pul ishlab topmoq = **earn money**
He chose that career because he wants to make money. – U o'sha karyerani tanladi chunki u pul topishni istaydi.
- ✓ **On business** - ish yuzasidan; ish safarida, komandirovkada
Michelle isn't in this week-she's in Paris on business. – Mishel bu hafta ish joyida emas-u ish yuzasidan Parijda.
- ✓ **On time** - o'z vaqtida
The manager told the staff to get to work on time in the morning. – Ish boshqaruvchi xodimlarga tongda o'z vaqtida ishga kelishni aytdi.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Bored** - zerikkan
The students were bored with doing Maths problems on a warm summer day. – O'quvchilar issiq yoz kunida matematik misollar yechishdan zerikib ketishgandi.
- ✓ **Boring** - zerikarli
When you do the same job for years, it gets boring. – Bir xil ishni yillab qilsangiz, u zerikarli bo'lib qoladi.
- ✓ **Busy** - band; serqatnov
The high street is always busy on Saturdays, full of shoppers. – Markaziy ko'cha shanba kunlari har doim gavjum bo'ladi, xaridorlarga to'la.
- ✓ **Daily** - har kunlik
Liam gets a daily wage of £60, but he doesn't work every day. – Liem kunlik 60 funt sterling miqdorida maosh oladi, lekin u har kuni ishlamaydi.
- ✓ **Difficult** - qiyin
I'm so tired-I had a difficult day at work. – Men juda charchadim-ishda qiyin kun bo'ldi.
- ✓ **Necessary** - zarur, muhim
It's necessary to get very high marks to get into medical school. – Tibbiyot oliygohiga kirish uchun yuqori baholar olish zarur.
- ✓ **Wonderful** - ajoyib
Teaching is the most wonderful job in the world-I love it! – Dars berish dunyodagi eng ajoyib ish-men uni sevaman!
- ✓ **Alone** - yolg'iz, bir o'zi

I prefer to work alone as I don't like to depend on others. – Men yolg'iz ishlashni afzal ko'raman chunki boshqalarga suyanishni yoqtirmayman.

✓ **Certainly** - aniq, albatta

Yes, Kelly is certainly in a good position to get the job. – Ha, Keli albatta ishni olish uchun yaxshi holatda.

✓ **Daily** - har kuni

The shop doesn't add up its profits daily, but at the end of the week. – Do'kon o'z daromadini har kuni emas, balki hafta oxirida qo'shadi.

✓ **Hard** - qattiq, tirishib

There were very few customers in the shop today, so we didn't have to work very hard. – Bugun do'konda juda kam sonli xaridor bo'ldi, shuning uchun qattiq ishlashimiz shart bo'lmadi.

Word formation

✓ **Able** - qodir, qila olmoq

Are you able to come on Saturday? – Shanba kuni kela olasizmi?

✓ **Unable** - qodir emas, qo'lidan kelmaydigan

After my illness, I was unable to get out of bed by myself. – Xastaligimdan keyin, men yotoqdan birovning yordamisiz turolmay qoldim.

✓ **Ability** - qobiliyat, salohiyat

I don't think he has the ability to do the job, unfortunately. – Afsuski, u ishni bajarish uchun kerakli salohiyatga ega deb o'ylamayman.

✓ **Arrange** - avvaldan belgilab olmoq, tashkillashtirmoq

Can I arrange an appointment for Monday? – Dushanba kuni uchun uchrashuv belgilatsam bo'ladimi?

✓ **Arrangement** - tayyorgarlik, tashkiliy ishlar

Can you make the arrangements for our trip to New York? – Nyu Yorkka sayohatimiz uchun tashkiliy ishlarni qila olasizmi?

✓ **Certain** - aniq, amin, ishonchi komil

Are you absolutely certain about this? – Bu haqida ishonchingiz komilmi?

✓ **Certainly** - albatta, aniq

Sergei will certainly help if you ask. He's a great worker. – Sergey albatta yordam beradi agar so'rasangiz. U ajoyib ishchi.

✓ **Choose** - tanlamoq

The children chose milk over juice. – Bolalar sharbatni emas, sutni tanladilar.

✓ **Choice** - tanlov

You can't do both jobs, so you need to make a choice. – Ikkala ishni bajara olmaysiz, shuning uchun tanlov qilishingiz kerak.

✓ **Day** - kun

We spent five days in Paris. – Biz Parijda besh kun o'tkazdik.

✓ **Daily** - har kunlik

I don't get a daily newspaper, but I always read one on Sunday. – Men har kunlik gazeta olmayman, biroq yakshanba kuni har doim bitta gazeta o'qiyman.

- ✓ **Daily** - har kuni, kuniga

Phil earns over £200 daily, but he doesn't work every day. – Fil kuniga 200 funt sterlingdan ziyod pul ishlab topadi, ammo u har kuni ishlamaydi.

- ✓ **Decide** - qaror qabul qilmoq

Why did you decide to look for a new job? – Nima uchun yangi ish izlashga qaror qildingiz?

- ✓ **Decision** - qaror

It was a difficult decision to make, but I chose Sam. – U qarorni qabul qilish qiyin bo'ldi, lekin men Semni tanladim.

- ✓ **Difficult** - qiyin

It's really difficult to read your writing. – Sizning yozuvingizni o'qish juda qiyin.

- ✓ **Difficulty** - qiyinchilik

Dawn had great difficulty in finishing the work on time. – Do'n ishni o'z vaqtida tugatishda ulkan qiyinchilikka uchradi.

- ✓ **Engine** - mashina motori

I got in the car and started the engine. – Men mashinaga o'tirdim va motorni o't oldirdim.

- ✓ **Engineer** - muhandis

Her dad's an engineer who designs motors for cars. – Uning dadasi mashinalar uchun motor ishlab chiqaruvchi muhandis.

- ✓ **Engineering** - muhandislik (sohasi)

She works in engineering—mostly factory machinery design. – U muhandislik sohasida ishlaydi—asosan fabrika mashinalarini loyihalash.

- ✓ **Manage** - boshqarmoq

The hotel is managed by two brothers. – Mehmonxona ikki aka-uka tomonidan boshqariladi.

- ✓ **Manager** - ish boshqaruvchi, menejer

The manager told Gerry that he could take Friday off work. – Ish boshqaruvchi Jerriga u juma kuni ishdan dam olishi mumkinligini aytdi.

- ✓ **Management** - boshqaruv

The management of the company is poor, so everything's badly organised. – Kompaniya boshqaruvi talabga javob bermaydi, shuning uchun hamma narsa yomon tashkillashtirilgan.

- ✓ **Music** - musiqa

Could you turn that music down? – Musiqani pasaytira olasizmi?

- ✓ **Musician** - musiqachi

How many musicians are there in the orchestra? – Orkestrada nechta musiqachi bor?

- ✓ **Musical** - musiqiy

Can you play a musical instrument? – Biror musiqiy asbob chala olasizmi?

- ✓ **Suit** - mos tushmoq, yarashmoq

Blue suits you. You should wear it more often. – Ko'k rang sizga yarashadi. Siz uni ko'proq kiyishingiz kerak.

- ✓ **Suit** - kostyum-shim

He was wearing a grey business suit. – U kulrang biznes kostyum-shimi kiyib olgandi.

- ✓ **Suitable** - mos, munosib
We believe you are the suitable person for the job-do you want it? – Siz ish uchun munosib odam ekanligingizga ishonamiz-ishni xohlaysizmi?
- ✓ **Unsuitable** - nomunosib
He's unsuitable as a manager-he's much too young, for one thing. – U ish boshqaruvchi lavozimiga nomunosib-birinchidan, u o'ta yosh.

UNIT 18. SHOPPING

Nouns

- ✓ **Advert** - reklama
There was an advert for coffee on the side of the bus. – Avtobusning yon tomonida kofe reklamasi bor edi.
- ✓ **Butcher's** - go'sht do'koni
Go to the butcher's and get me some sausages. – Go'sht do'koniga borib, menga ozgina sosiska olib keling.
- ✓ **Cash** - naqd pul
They don't accept credit cards in that shop-only cash. – U do'konda plastik kartochkalar qabul qilishmaydi-faqatgina naqd pul.
- ✓ **Changing room** - kiyimni sotib olishdan avval uni kiyib ko'radigan xona, kiyim almashtirish xonasi
Where are the changing rooms? I want to try on these trousers. – Kiyim almashtirish xonalari qayerda? Men mana bu shimni kiyib ko'rmoqchiman.
- ✓ **Chemist's** - dorixona
When you're at the chemist's, will you get me some aspirin? – Dorixonada ekanligingizda menga ozgina aspirin ola olasizmi?
- ✓ **Credit card** - plastik kartochka
Can I pay by credit card here? – Bu yerda plastik kartochka orqali to'lasam bo'ladimi?
- ✓ **Customer** - xaridor
He's the shop's best customer. He comes in and buys something nearly every day. – U do'konning eng yaxshi xaridori. U deyarli har kuni kirib, biror narsa sotib oladi.
- ✓ **Baker's** - nonvoyxona, qandolat do'koni: non mahsulotlari, to'rt, bulochka, pishiriqlar tayyorlanadigan joy
I went to the baker's to buy some bread. – Ozgina non sotib olish uchun nonvoyxonaga bordim.
- ✓ **Bill** - scho't, xizmat yoki iste'mol uchun to'lov
Let me pay the bill for the meal this time. – Bu safar taom uchun to'lovni men to'lashimga ruxsat bering.
- ✓ **Bookshop** - kitob do'koni
Alex went into the bookshop to buy a book. – Aleks kitob sotib olish uchun kitob do'koniga kirdi.
- ✓ **Department store** - univermag, savdo markazi: birgina katta do'kon ichida barcha turdagi mahsulotlar sotiladi
You can buy nearly anything in a department store. – Univermagda deyarli istalgan narsani sotib ola olasiz.

- ✓ **Gift** - sovg'a
Fred bought his dad a gift for his birthday. – Fred dadasiga tug'ilgan kuni uchun bir sovg'a sotib oldi.
- ✓ **Greengrocer's** - meva va sabzavotlar do'koni
I bought some bananas and apples at the greengrocer's. – Men meva va sabzavotlar do'konida ozgina banan va olmalar sotib oldim.
- ✓ **Online shopping** - internetda xarid qilish
Online shopping is much easier than going out to the shops. – Internetda xarid qilish do'konga borishdan ancha osonroq.
- ✓ **Pocket money** - cho'ntak puli: ota-onalar farzandiga ehtiyoj tug'ilganda biror yegulik, o'quv qurollari va hokazolar uchun sarflashi uchun beradi
Do your parents give you pocket money every week? – Ota-onangiz sizga har hafta cho'ntak puli berishadimi?
- ✓ **Present** - sovg'a = gift
Yvonne bought her mother a lovely present for Mother's Day. – Ivo'n onasiga Onalar Kuni munosabati bilan ajoyib sovg'a sotib oldi.
- ✓ **Price** - narx
All the shops bring their prices down after Christmas. – Hamma do'konlar Rojdestvodan so'ng narxlarni tushiradilar.
- ✓ **Queue** - navbat
There was a long queue in the bank, so I went to do my shopping instead. – Bankda uzun navbat bor edi, shuning uchun uning o'rniga bozorligimni qilish uchun ketdim.
- ✓ **Shop assistant** - sotuvchi
The shop assistant in the clothes shop asked Greg if he needed any help. – Kiyim do'konidagi sotuvchi Gregdan yordam kerakmi deb so'radi.
- ✓ **Shopping centre/mall** - savdo majmuasi: turli-tuman mahsulotlar sotishga mo'ljallangan ko'plab do'konlardan tashkil topgan bo'ladi
They go to the shopping mall every weekend to shop and eat. – Ular har hafta oxirida xarid qilish hamda ovqatlanish uchun savdo majmuasiga borishadi.
- ✓ **Street market** - bozorcha
Tourists love shopping in this street market in Istanbul. – Sayyohlar Istanbuldagi ushbu bozorlarda xarid qilishni yoqtiradilar.
- ✓ **Supermarket** - supermarket
He went to the supermarket with his mum to help with the shopping. – U xarid qilishda yordam berish uchun onasi bilan supermarketga bordi.

Verbs

- ✓ **Buy** - sotib olmoq
Jane went shopping but she didn't buy anything. – Jeyn xarid qilishga bordi, lekin hech narsa sotib olmadi.
- ✓ **Change** - o'zgartirmoq

I want to change this top because it's too small for me. – Men mana bu ustki kiyimni almashtirishni istayman chunki u men uchun haddan tashqari kichik.

- ✓ **Charge** - haq olmoq, pul olmoq
How much do they charge for a haircut here? – Bu yerda soch olish uchun necha pul olishadi?
- ✓ **Close** - yopmoq, yopilmoq
Do the shops close at 5 pm or 6 pm today? – Bugun do'konlar kechki soat 5 da yopiladimi yoki 6 dami?
- ✓ **Cost** - narxda turmoq
How much does a loaf of bread cost? – Bir buxanka non necha pul turadi?
- ✓ **Decide** - qaror qabul qilmoq, bir qarorga kelmoq
I can't decide which shirt to buy. – Qaysi ko'ylakni sotib olish haqida bir qarorga kelolmayapman.
- ✓ **Open** - ochmoq, ochilmoq
What time do the shops open here in the morning? – Bu yerda do'konlar tongda soat nechada ochiladi?
- ✓ **Order** - buyurtma bermoq
Well, I know what I want to eat—are you ready to order? – Xo'sh, men nima yeyishni xohlayotganimni bilaman–sizchi, buyurtma berishga tayyormisiz?
- ✓ **Pay** - to'lamoq
Ruth's dad always pays for the meal when they go out. – Rusning dadasi ular aylanishga chiqqanda har doim ovqat uchun to'laydi.
- ✓ **Return** - qaytarmoq
Henry returned the MP3 player because it stopped working. – Henri MP3 pleyerni qaytarib berdi chunki u ishlashdan to'xtabdi.
- ✓ **Sell** - sotmoq
They sell great steaks in that butcher's. – Anavi go'sht do'konida ajoyib lahm go'shtlar sotishadi.
- ✓ **Spend** - pul sarflamoq
Julie spent all her pocket money on one top. – Juli hamma cho'ntak pulini bittagina ustki kiyimga sarfladi.
- ✓ **Wrap** - (asosan sovg'ani) o'ramoq, upakovka qilmoq
Did you get paper to wrap the Christmas presents with? – Rojdestvo sovg'alarini o'rash uchun qog'oz oldingizmi?

Phrasal verbs

- ✓ **Come/Go down** - tushmoq, pasaymoq (narxlarga nisbatan)
Wait for the prices to go down in the sales. – Chegirmada narxlar pasayishini kuting.
- ✓ **Go up** - ko'tarilmoq, o'smoq (narxlarga nisbatan)
Prices always go up before Christmas. – Rojdestvodan avval narxlar har doim ko'tariladi.
- ✓ **Make up your/her/etc mind** - bir qarorga kelmoq
I can't make up my mind—which shirt is better? – Men bir qarorga kelolmayapman–qaysi ko'ylak yaxshiroq?

- ✓ **Take back** - sotib olgan narsani do'konga qaytarib olib bormoq
That dress doesn't fit. You should take it back. – Bu ko'ylak mos tushmadi. Uni do'konga qaytarib olib borishingiz kerak.
- ✓ **Take down** - pastga olmoq
He took the teddy bear down from the shelf for his daughter. – U yumshoq ayiqchani qizi uchun tokchadan olib berdi.
- ✓ **Wrap up** - (asosan sovg'ani) o'ramoq, upakovka qilmoq
Let's wrap up the presents and put them under the tree. – Keling sovg'alarni o'raymiz va daraxtning tagiga qo'yamiz.

Phrases

- ✓ **A couple of (things)** - bir nechta (narsa)
Can you get a couple of things for me at the supermarket? – Supermarketda men uchun bir nechta narsalar olib ola olasizmi?
- ✓ **Difference between (two things)** - (ikki narsa) o'rtasidagi farq, tafovut
There's no difference between those two shirts-buy either. – Bu ikki ko'ylak o'rtasida hech qanday farq yo'q-birini sotib oling.
- ✓ **For sale** - sotuvda
The coat on the counter wasn't for sale-it was the shop assistant's. – Peshtaxtadagi palto sotuvda emasdi-u sotuvchiniki edi.
- ✓ **Get a refund** - to'lagan pulini qaytarib olmoq
Bring the DVD player back and get a refund-it doesn't work. – DVR pleyerni qaytarib olib keling va to'lagan pulingizni qaytarib oling-u ishlamaydi.
- ✓ **Go with (someone)** - (biror kim) bilan birga bormoq
Go with your father to the supermarket, Diane. – Dayan, dadangiz bilan supermarketga boring.
- ✓ **In cash** - naqd pul orqali
Are you paying by credit card or in cash? – Plastik kartochka orqali to'laysizmi yoki naqd pul orqalimi?
- ✓ **It costs** - uning narxi... (biror narsaning narxi/qiymatini aytishda foydalaniladi)
It costs £15 to watch a film in that cinema. – U kinoteatrda film tomosha qilishning narxi 15 funt sterling.
- ✓ **Go shopping** - xarid uchun bormoq
Do you go shopping in town every Saturday? – Shaharda xarid qilish uchun har shanba kuni borasizmi?
- ✓ **Made of (something)** - (biror material)dan yasalgan, tayyorlangan, tikilgan, qurilgan
What is this shirt made of-cotton or polyester? – Bu ko'ylak qanday materialdan tikilgan-paxtami yoki sintetik materialmi?
- ✓ **Pay for (something)** - (biror narsa) uchun to'lamoq
Pay for lunch today and I will tomorrow. – Tushlik uchun bugun siz to'lang, men esa ertaga to'layman.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Brand-new** - zamonaviy, yap-yangi
She's got a brand-new mobile phone—it was her birthday last week. – U zamonaviy telefon oldi-o'tgan hafta uning tug'ilgan kuni edi.
- ✓ **Cheap** - arzon
The clothes are so cheap—I bought all these for £10! – Bu kiyimlar rosa arzon–bularning barini 10 funt sterlingga sotib oldim!
- ✓ **Expensive** - qimmat
The clothes there are too expensive for her to buy. – U yerdagi kiyimlar u sotib olishi uchun haddan tashqari qimmat.
- ✓ **Open-air** - ochiq havoda joylashgan, tom ostida emas, tepasi o'ralmagan
We visited an open-air market while we were in Thailand. – Biz Tailandda bo'lgan paytimizda ochiq havoda joylashgan bozorga tashrif buyurdik.
- ✓ **Extremely** - juda ham, nihoyatda
Mark always takes an extremely long time to choose clothes. – Mark har doim kiyim tanlash uchun juda ham uzoq vaqt oladi.
- ✓ **Fairly** - anchagina
The shoes were fairly expensive, but not too much. – Oyoq kiyimlar anchagina qimmat edi, lekin haddan tashqari qimmat emas.
- ✓ **Quite** - anchagina, juda ham
It's quite cheap to eat in that restaurant, but the food's great. – U restoranda ovqatlanish anchagina arzon, lekin ovqati ajoyib.

Word formation

- ✓ **Assist** - yordamlashmoq
Your job will be to assist the production manager. – Sizning ishingiz ishlab chiqarish menejeriga yordamlashish bo'ladi.
- ✓ **Assistant** - yordamchi
My mum works as an assistant to the manager. – Mening oyim ish boshqaruvchi yordamchisi bo'lib ishlaydi.
- ✓ **Assistance** - yordam
Can I give you any assistance with choosing a suit, sir? – Kostyum-shim tanlashda biror yordam bera olamanmi, janob?
- ✓ **Centre** - markaz
We both work in the city centre. – Biz ikkovimiz ham shahar markazida ishlaymiz.
- ✓ **Central** - markaziy
The shop does well because it's in a central part of the city. – Do'kon yaxshi ishlaydi (= savdo yaxshi) chunki u shaharning markaziy qismida joylashgan.
- ✓ **Centrally** - markaziy joyda
Restaurants that are centrally located do better. – Markaziy joyda joylashgan restoranlar yaxshiroq ishlaydi (= xo'randalar soni va tushum yaxshi bo'ladi).
- ✓ **Close** - yopmoq, yopilmoq

What time does the bank close? – Bank soat nechada yopiladi?

✓ **Closed** - yopiq

We got to the shop at 5.30 and it was closed. – Biz do'konga soat 5.30 da bordik va u yopiq edi.

✓ **Differ** - farq qilmoq, turlicha bo'lmoq

The models differ in size and shape. – Modellar o'lchami va shakli jihatdan farq qiladi.

✓ **Difference** - farq, tafovut

What's the difference between a grocer's and a greengrocer's? – Oziq-ovqat do'koni va meva-sabzavotlar do'koni o'rtasidagi farq nimada?

✓ **Different** - boshqacha, farqli, har xil

She's tired of wearing the same old clothes–she wants something different. – U bir xil eski kiyimlarni kiyaverishdan charchadi–u biror boshqacha narsa xohlayapti.

✓ **Differently** - turli tarzda, har xil, boshqacha

The two sisters are dressed very differently, but their hair is the same. – Ikki opa-singil juda ham turli tarzda kiyinishgan, lekin ularning sochi bir xil.

✓ **Extreme** - keskin darajada jiddiy, o'ta kuchli

The heat in the desert was extreme. – Sahrodagi issiqlik o'ta kuchli edi.

✓ **Extremely** - juda ham, nihoyatda

We were extremely unhappy about how rude the waiter was. – Biz ofitsiantning qo'polligidan nihoyatda norozi edik.

✓ **Feel** - his qilmoq

I felt like a complete idiot. – Men o'zimni butunlay ahmoqdek his qildim.

✓ **Feeling** - hissiyot, tuyg'u

Finding exactly the right dress for the party was a great feeling. – Bazm uchun aynan kerakli ko'ylakni topish juda ajoyib tuyg'u edi.

✓ **Perfect** - mukammal, ajoyib, eng mos

Hawaii is the perfect place for a honeymoon. – Havayi (= o'zbeklar Gavayi deyishadi, ammo inglizchada bu so'zning to'g'ri talaffuzi Havayi bo'ladi) asaloyi uchun ajoyib joy.

✓ **Perfectly** - mutlaqo, butunlay

That shirt fits you perfectly–you have to buy it! – U ko'ylak sizga mutlaqo mos tushdi–uni sotib olishingiz lozim!

✓ **Sell** - sotmoq

I recently sold my car to James for £800. – Men yaqinda mashinamni Jeymsga 800 funt sterlingga sotib yubordim.

✓ **Sale** - savdo, sotish

We made three sales in the car showroom today. – Bugun mashina ko'rgazmasida uchta sotuvni amalga oshirdik (= uchta mashina sotdik).

✓ **Seller** - sotuvchi

The seller is not allowed to lie to the buyer. – Sotuvchi xaridorga yolg'on gapirishiga ruxsat berilmaydi (= taqiqlangan).

✓ **Shop** - xarid qilmoq

I shop for clothes every season. – Men har faslda kiyim xarid qilaman.

✓ **Shop** - do'kon

She opened a flower shop in the High Street. – U Hay Stritda (= Markaziy Ko'chada) gul do'koni ochdi.

- ✓ **Shopper** - xaridor

The mall is full of shoppers on Saturdays. – Savdo markazi shanba kunlari xaridorlarga to'la.

- ✓ **Shopping** - xarid qilish

I hate shopping with my mum because she takes me to about fifty different shops. – Men oyim bilan xarid qilishni yomon ko'raman chunki ular meni taxminan ellikta har xil do'konga olib boradilar.

UNIT 21. CUSTOMS AND TRADITIONS

Nouns

- ✓ **Cardboard** - karton

The boy's mother cut him a mask out of cardboard. – Yigitchaning onasi unga kartondan niqob kesib berdi.

- ✓ **Circus** - sirk

My favourite act in the circus are the clowns. – Sirkdagi mening sevimli sahna ko'rinishim bu masxarabozlardir.

- ✓ **Costume** - libos, ust-bosh, kiyim

What costume will you dress up in at Halloween? – Hallowin bayramida qanday libosda kiyinasiz (= qaysi film yoki mult qahramoniga o'xshab kiyinasiz)?

- ✓ **Decoration** - bezak, dekoratsiya

There were balloons hanging everywhere as decoration. – Bezak sifatida hamma yerda sharlar osilib turgan edi.

- ✓ **Fair** - yarmarka; karnaval, istirohat bog'i, park

Her favourite ride at the fair is the carousel. – Uning yarmarkadagi sevimli atraksioni bu karuseldir.

- ✓ **Festival** - bayram, tantana, shodiyona

They have a spring festival here every year. – Bu yerda har yili bahoriy shodiyona qilishadi.

- ✓ **Fun** - xursandchilik, vaqtichog'lik, ko'ngilxushlik

We had a lot of fun at the fair—it was great! – Yarmarkada rosa vaqtichog'lik qildik—ajoyib bo'ldi!

- ✓ **Habit** - odat

It's Grandad's habit to take a walk every morning. – Har tongda piyoda sayr qilish bu bobomning odati.

- ✓ **Mood** - kayfiyat

Why are you in a bad mood? Did something go wrong? – Nima uchun yomon kayfiyatdasiz? Nimadir xato ketdimi (= o'xshamadimi)?

- ✓ **Noise** - shovqin

The children are making a lot of noise. Tell them to be quiet. – Bolalar rosa shovqin qilishyapti. Jim bo'lishni ayting ularga.

- ✓ **Organiser** - tashkillashtiruvchi

The mayor is a good organiser, so the carnival went perfectly. – Shahar hokimi yaxshi ish tashkillashtiruvchi, shunday ekan karnival a'lo darajada o'tdi.

- ✓ **Parade** - parad, nishonlash

We watched the dancers in the parade go by. – Biz paraddagi raqqoslarni o'tib ketishini kuzatdik.

- ✓ **Reason** - sabab

The reason for the festival is to welcome the return of spring. – Shodiyonaning sababi bu bahorning qaytishini iliq kutib olishdir.

- ✓ **Scream** - qichqiriq

The screams of the fans got louder and louder. – Muxlislarning qichqiriqlari tobora balandlashib bordi.

- ✓ **Show** - ko'rsatuv, shou, tomosha

Let's go in and sit down because the show's about to start. – Keling ichkariga kirib o'tiramiz, chunki tomosha boshlanish arafasida (= hademay boshlanadi).

- ✓ **Speech** - nutq

The mayor made a speech to the people of the town. – Shahar hokimi shahar ahliga nutq so'zladi.

- ✓ **Sword** - qilich

That sword was carried by a king in the past. – U qilich o'tmishda bir qirol tomonidan olib yurilgan.

- ✓ **Town hall** - shahar hokimiyati binosi

The mayor's office is in the town hall. – Merining ofisi shahar hokimiyati binosida.

- ✓ **Treasure** - xazina

The two boys were looking for pirates' treasure on the beach. – Ikki yigitcha plyajda qaroqchilar xazinasini izlayotgan edi.

- ✓ **Voice** - ovoz

He was shouting so much that he lost his voice. – U shu qadar ko'p baqirayotgan ediki, natijada ovozini yo'qotdi.

Verbs

- ✓ **Amaze** - lol qoldirmoq, hayratga solmoq

That magician's tricks always amaze me. – O'sha fokusning fokuslari doim meni hayratga soladi.

- ✓ **Burst** - yorilmoq

The balloon burst and made a loud bang. – Shar yorildi va baland bang'illagan tovush chiqardi.

- ✓ **Continue** - davom etmoq

The parade goes through the square and continues up the hill. – Parad maydon bo'ylab o'tadi va tepalikka qarab davom etadi.

- ✓ **Guess** - taxmin qilmoq

Can you guess where we're going on holiday this year? – Bu yil ta'tilda qayerga borayotganligimizni taxmin qila olasizmi?

- ✓ **Invite** - taklif qilmoq

If Laura invites you to her party, will you go? – Agar Lo'ra sizni o'z bazmiga taklif qilsa, borasizmi?

✓ **Joke** - hazillashmoq

My dad jokes about his weight, but he's worried really. – Dadam vazni to'g'risida hazillashadi, lekin u rostdan ham tashvishlanadi.

✓ **Judge** - g'olibni aniqlab bermoq, hakamlik qilmoq

Who is judging the best costume? – Eng yaxshi libosni kim aniqlab beryapti?

✓ **Organise** - tashkillashtirmoq

Do you know a good company that organises children's parties? – Bolalar bazmini tashkillashtiradigan yaxshi bir korxonani bilasizmi?

✓ **Prepare** - tayyorlamoq

It took two hours to prepare all the food for fifty guests. – Ellikta mehmon uchun hamma ovqatni tayyorlashga ikki soat vaqt ketdi.

✓ **Pretend** - mug'ombirlik qilib o'zini biror ko'yga solmoq, ...dek tutmoq

The footballer pretended to be hurt, but he was fine. – Futbolchi o'zini jarohatlangandek tutdi, lekin ahvoli joyida edi.

✓ **Report** - ma'lum qilmoq, xabar bermoq

The newspaper reported the discovery of a 1000-year-old sword. – Gazeta 1000 yillik qilich topilgani haqida xabar berdi.

✓ **Return** - qaytmoq

We leave for France on the 8th and return on the 17th. – Biz Fransiya 8-da jo'namiz va 17-da qaytib kelamiz.

✓ **Scream** - qichqirmoq

The children screamed with excitement when they saw the elephants. – Fillarni ko'rishganida, bolalar quvonchdan qichqirishdi.

✓ **Smile** - jilmaymoq, tabassum qilmoq

The clowns always make me smile. – Masxarabozlar doim meni tabassum qilishga majbur qiladi.

✓ **Spray** - sepmoq, purkamoq

The gardener sprayed his plants with water. – Bog'bon o'simliklariga suv sepd.

Phrasal verbs

✓ **Go on** - davom etmoq = **continue**

The festival goes on for three days. – Bayram uch kun davom etadi.

✓ **Put up** - tepaga osmoq, ilmoq, yuqoriga o'rnatmoq = **hang, mount**

The organisers put decorations up everywhere. – Tashkillashtiruvchilar hamma yerga bezaklar osib tashlashdi.

✓ **Run after (someone/something)** - (biror kim/narsa) ortidan yugurmoq, quvmoq

They run after the horses shouting and screaming. – Ular baqirib va qichqirib otlarni quvishadi.

Phrases

✓ **As soon as** - ...bo'lishi bilanoq

As soon as we get home, I'm calling your father! – Uyga yetib borishimiz bilanoq, dadangizga qo'ng'iroq qilaman!

- ✓ **Fancy dress costume/party** - chiroyli va bashang libos/antiqa kiyimlar kiyib boriladigan bazm
Who are you dressing up as for the fancy dress party? – Antiqa kiyimlar kiyib boriladigan bazm uchun kim (= qaysi film yoki mult qahramoni)ga o'xshab kiyinasiz?
- ✓ **Fight against (something)** - (biror narsa)ga qarshi kurashmoq
My grandfather fought against the Fascists in Spain. – Mening bobom Ispaniyada fashistlarga qarshi kurashgan.
- ✓ **Have a party** - bazm o'tkazmoq
I always have a party for my birthday. – Men har doim tug'ilgan kunim uchun bazm o'tkazaman.
- ✓ **Invite someone to something** - biror kimni biror yerga taklif qilmoq
My cousin invited me to his summer house this weekend. – Amakivachcham meni shu hafta oxirida (dam olish uchun) o'z dala hovlisiga taklif qildi.
- ✓ **A kind of (something)** - (biror narsaning) xili, turi, navi
A pavlova is a kind of dessert. – Pavlova shirinlikning bir turi.
- ✓ **Laugh at (someone/something)** - (biror kim/narsaning) ustidan kulmoq
We laughed at the clowns at the circus. – Biz sirkda masxarabozlarning ustidan kuldik.
- ✓ **Look forward to (something)** - (biror narsa)ni intiqib kutmoq
I'm looking forward to the parade next week-it'll be great! – Keyingi haftadagi paradni intiqib kutyapman–ajoyib bo'ladi!
- ✓ **Of course** - albatta
Of course I'm coming to the party. I wouldn't miss it! – Albatta men bazmga boraman. Uni o'tkazib yubormagan bo'lardim!
- ✓ **Take photo(graph)s** - rasm olmoq
She took some lovely photos of the dancers for the newspaper. – U raqqoslarni gazeta uchun chiroyli qilib rasmga oldi.
- ✓ **Take place** - sodir bo'lmoq, bo'lib o'tmoq
The festival takes place on the last weekend in November. – Tantana Noyabr oyining eng so'nggi dam olish kunida bo'lib o'tadi.
- ✓ **Walk past** - yonidan yurib o'tib ketmoq
A man just walked past me dressed as a monkey! – Maymunga o'xshab kiyingan bir erkak hozirgina yonimdan yurib o'tib ketdi!

Adjectives and adverbs

- ✓ **Common** - odatiy, ko'p uchraydigan, keng tarqalgan
It's very common for American boys to dress up as cowboys. – Amerikalik o'g'il bolalar uchun kovboylar kabi kiyinish juda keng tarqalgan.
- ✓ **Crowded** - gavjum, tiqilinch
It was so crowded on the bus that we couldn't get on. – Avtobus shu qadar tiqilinch ediki, biz unga chiqa olmadik.
- ✓ **Curious** - qiziqqan, bilishni xohlaydigan

- I'm curious to see who wins the prize. – Kim yutuqni yutib olishini ko'rishga qiziqib ketyapman.*
- ✓ **Strange** - g'alati
It was such a strange show that I couldn't understand it. – U shunaqangi g'alati tomosha ediki, men uni tushunmadim.
 - ✓ **Traditional** - an'anaviy
It's a traditional festival that first took place 500 years ago. – U ilk bor 500 yil avval bo'lib o'tgan an'anaviy bayram.
 - ✓ **Whole** - butun
The whole town takes part in the parade—men, women and children. – Butun shahar paradda ishtirok etadi—erkaklar, ayollar va bolalar.
 - ✓ **Backwards** - orqaga qarab
He fell over backwards and bumped the back of his head. – U orqaga qarab yiqilib tushdi va boshini orqa tomonini urib oldi.
 - ✓ **Especially** - ayniqsa
She loves all parties, but especially fancy dress parties. – Unga barcha bazmlar yoqadi, lekin ayniqsa antiqa kiyimlar kiyib boriladigan bazmlar.
 - ✓ **Forwards** - oldinga qarab
The parade stopped and then moved forwards again. – Parad to'xtadi, keyin esa yana oldinga qarab harakatlandi.
 - ✓ **Indeed** - haqiqatdan ham
Their mother promised to take them fishing and indeed she did. – Ularning onasi ularni baliq oviga olib borishga va'da berdi va haqiqatdan ham bu ishni qildi.

Word formation

- ✓ **Amaze** - lol qoldirmoq, hayratga solmoq
The beauty of the city amazed her. – Shaharning chiroyi uni lol qoldirdi.
- ✓ **Amazement** - hayrat
We looked at the sight with amazement—we couldn't believe it. – Biz manzaraga hayrat bilan qaradik—unga ishonolmasdik.
- ✓ **Amazing** - ajoyib, hayratga soladigan
What an amazing show! – Naqadar ajoyib tomosha!
- ✓ **Amazingly** - ajablanarlisi shuki, hayratga soladigan jihati shuki
Amazingly, no one got hurt when the lions escaped. – Ajablanarli jihati shundaki, sherlar qochib ketganda hech kim shikastlanmadi.
- ✓ **Attend** - e'tibor qaratmoq, diqqatini qaratmoq
She hadn't been attending during the lesson. – Dars davomida u diqqatini qaratmayotgandi.
- ✓ **Attention** - e'tibor, diqqat
Please pay attention to the rules that I'm telling you. – Iltimos, sizga aytayotgan qoidalarimga e'tiboringizni qarat.
- ✓ **Crowd** - olomon

If you want to avoid the crowds, get there early. – Agar olomonni oldini olishni istasangiz, u yerga erta yetib boring.

✓ **Crowded** - gavjum, tiqilinch

It was so crowded in the tent that we couldn't get in. – Chodir shu qadar tiqilinch ediki, natijada biz kira olmadik.

✓ **Decorate** - bezatmoq

They decorated the room with flowers and balloons. – Ular xonani gullar va sharlar bilan bezatishdi.

✓ **Decoration** - bezak, dekoratsiya

They put up decorations all over the town—it was beautiful! – Butun shahar bo'ylab bezaklar osib chiqishgandi—juda chiroyli edi!

✓ **Direct** - to'g'ridan-to'g'ri, bevosita

There's a direct train to Leeds. – Lidzga to'g'ridan-to'g'ri olib boradigan poyezd bor.

✓ **Direct** - yo'nalish ko'rsatmoq, qanday borish kerakligini aytmoq

Could you direct me to the station? – Menga vokzalga yo'lni ko'rsatib yubora olasizmi?

✓ **Direction** - yo'nalish

What direction is the food tent in? – Oziq-ovqat chodiri qaysi yo'nalishda?

✓ **Directly** - to'g'ridan-to'g'ri

I went directly home after the show because I was tired. – Tomoshadan keyin men to'g'ri uyga ketdim chunki charchagandim.

✓ **Frighten** - qo'rqitmoq

Spiders frighten him to death. – O'rgimchaklar uni o'lgudek qo'rqitadi.

✓ **Frightened** - qo'rqib ketgan

The children were frightened by the strange people. – Bolalar notanish odamlardan qo'rqib ketishgandi.

✓ **Frightening** - qo'rqinchli

Grandpa told us a frightening story about ghosts. – Bobom bizga arvohlar to'g'risida bir qo'rqinchli hikoya aytib berdilar.

✓ **Fun** - xursandchilik, vaqtichog'lik, ko'ngilxushlik

We had a lot of fun at Sarah's party. – Saraning bazmida rosa vaqtichog'lik qildik.

✓ **Fun** - maroqli, qiziqarli

This game looks fun! – Bu o'yin maroqli ko'rinadi (= ko'rinishidan maroqliga o'xshaydi)!

✓ **Funny** - kulguli

The joke was so funny that I couldn't stop laughing. – Hazil shu qadar kulguli ediki men kulishdan to'xtay olmadim.

✓ **Laugh** - kulmoq

When I heard her excuse, I just laughed. – Uning bahonasini eshitganimda, men shunchaki kulib yubordim.

✓ **Laugh** - kulgu

'It was pretty crazy,' she said with a laugh. – "Bu judayam ahmoqona ish bo'ldi," dedi u kulgu bilan.

✓ **Laughter** - kulish (ovozi)

The laughter of the kids told me they were having a great time. – Bolalarning kulayotgan ovozi ular vaqtni ajoyib o'tkazayotganini bildirdi.

- ✓ **Luck** - omad
We wish her luck in her new career. – Uning yangi ish faoliyatida omad tilaymiz.
- ✓ **Lucky** - omadli
One lucky woman won £300. – Bir omadli ayol 300 funt sterling yutib oldi.
- ✓ **Unlucky** - omadsiz
You were very unlucky to break your leg. – Oyog'ingizni sindirib olganingiz omadsiz ish bo'libdi.
- ✓ **Luckily** - yaxshiyamki, xayriyat, baxtinga
Luckily, someone found my bag and gave it to a policeman. – Baxtinga, kimdir mening sumkamni topib olib, politsiya ofitseriga beribdi.
- ✓ **Noise** - shovqin
They were making too much noise. – Ular haddan tashqari ko'p shovqin qilishayotgandi.
- ✓ **Noisy** - shovqinli
Don't be so noisy while I'm trying to sleep. – Men uxlashga urinayotgan paytimda unaqa shovqinli bo'lmang (= shovqin-suron qilmang).
- ✓ **Noisily** - shovqinli tarzda, shovqin chiqarib
Someone in the cinema was eating crisps noisily. – Kinoteatrda kimdir shovqin chiqarib chips yeyib o'tirdi.
- ✓ **Organise** - tashkillashtirmoq
I've organised a lot of school trips. – Men ko'plab maktab sayohatlari tashkillashtirganman.
- ✓ **Organiser** - tashkillashtiruvchi, tashkilotchi
The organisers of the festival did a great job. – Festivalni tashkillashtiruvchilar ajoyib ish qilishibdi.
- ✓ **Organisation** - tashkillashtirish, uyushtirish, tashkiliy ishlar
The organisation of the parade was terrible and nobody knew where to go. – Paradni tashkillashtirilishi rasvo bo'lgan va hech kim qayerga yurishni bilmadi.
- ✓ **Prepare** - tayyorla(n)moq
The whole class is working hard preparing for the exams. – Butun sinf imtihonlarga tayyorlanib qattiq harakat qilishyapti.
- ✓ **Preparation** - tayyorgarlik
We finished the preparations for the party just before the kids arrived. – Biz bazmga tayyorgarliklarni bolalar yetib kelishidan shundoqqina avval tugatdik.
- ✓ **Report** - ma'lum qilmoq, xabar bermoq
"The cabin's empty," he reported. – "Kulba bo'm-bo'sh," deya xabar berdi u.
- ✓ **Report** - hisobot, axborot
According to this evening's weather report, there will be snow tomorrow. – Bugun oqshomgi ob-havo axborotiga ko'ra, ertaga qor yog'adi.
- ✓ **Reporter** - reportyor, muxbir
He works as a reporter for the town newspaper. – U shahar gazetasida muxbir bo'lib ishlaydi.
- ✓ **Tradition** - urf-odat, an'ana

By tradition, children play tricks on 1 April. – An'anaga ko'ra, bolalar 1-aprelda xiyla-nayranglar qilishadi.

✓ **Traditional** - an'anaviy

Traditional Japanese swords are so beautifully made. – An'anaviy yapon qilichlari juda chiroyli yasalgan.

✓ **Traditionally** - azaldan, qadimdan, urf-odatga ko'ra

Traditionally, the women dress in white and enter the village singing songs. – Urf-odatga ko'ra, ayollar oppoq kiyinib olishadi va qishloqqa qo'shiq kuylagan holda kirishadi.

UNIT 24. FASHION

Nouns

✓ **Accessory/Accessories** - aksessuar, qo'shimcha qism: kiyimingizga mos tushadigan biror narsa, masalan kamar yoki sumka

The shop sells accessories like belts and bags. – Bu do'kon kamar va sumka kabi aksessuarlar sotadi.

✓ **Anorak** - yomg'irli sovuq havoda kiyiladigan kapyushonkali kurtka

I need to buy an anorak—it's going to be a rainy winter. – Men kurtka sotib olishim kerak—bu qish yomg'irli qish bo'ladi.

✓ **Belt** - kamar

You need to buy a brown belt to go with those brown trousers. – Bu jigarrang shimga mos tushadigan jigarrang kamar sotib olishingiz kerak.

✓ **Boot** - etik

She was wearing a pair of leather boots that came up to her knees. – U tizzalarigacha chiqqan bir juft charm etik kiyib olgandi.

✓ **Button** - tugma

One of the buttons came off the front of my shirt. – Ko'ylagimning old qismidagi tugmalardan biri chiqib ketdi.

✓ **Cardigan** - kofta, kardigan: to'qilgan, odatda yoqasiz kiyim turi

My granddad was wearing a woolly cardigan buttoned all the way up. – Bobom tugmalari yuqorigacha taqilgan yungli kardigan kiyib olgandilar.

✓ **Clothes** - kiyimlar

He's got so many clothes that they don't fit in his wardrobe. – Uning shunchalar ko'p kiyimlari borki, ular kiyim shkafga sig'maydi.

✓ **Dress** - ayollar ko'ylagi, libos

Kate is wearing a long flowery summer dress. – Keyt uzun, gulli yozgi ko'ylak kiyib olgan.

✓ **Fashion (show)** - moda (shousi)

She loves fashion and spends all her money on clothes. – U modani sevadi va hamma pulini kiyimlarga sarflaydi.

✓ **Handbag** - ayollar sumkasi

She was carrying a small black leather handbag under her arm. – U qo'lining ostida kichik bir qora rangdagi charm sumka ko'tarib olgandi.

- ✓ **Jacket** - kurtka, pidjak
The trousers of the suit fit you, but the jacket's too small. – Kostyum-shimning shimi sizga mos tushdi, ammo pidjak haddan tashqari kichik.
- ✓ **Jewellery** - taqinchoqlar
The shop sells jewellery like necklaces and rings. – Bu do'kon marjon va uzuk kabi taqinchoqlar sotadi.
- ✓ **Make-up** - makiyaj, pardoz-andoz, oro (berish)
My mum doesn't put on much make-up—just lipstick. – Oyim ko'p pardoz-andoz qilmaydilar—faqatgina pomada suradilar.
- ✓ **Perfume** - atir
Your perfume smells beautiful—what's it called? – Atiringiz chiroyli hid taratarkan—u qanday ataladi (= uning nomi nima)?
- ✓ **Shampoo** - shampun
Your hair's so shiny! What shampoo do you use? – Sochingiz juda yorqin ekan! Qanday shampundan foydalanasiz?
- ✓ **Shirt** - erkaklar ko'ylagi
Why don't you buy a brown tie to wear with that yellow shirt? – 1) U sariq ko'ylak bilan kiyish uchun bitta jigarrang bo'yinboq sotib olishingiz kerak. 2) Nima uchun u sariq ko'ylak bilan kiyish uchun bitta jigarrang bo'yinboq sotib olmaysiz?
- ✓ **Shoe** - oyoq kiyim: tufli, botinka
I have to take off these shoes because they're hurting my feet. – Bu oyoq kiyimlarni yechishga majburman chunki ular oyoqlarimni og'rityapti.
- ✓ **Size** - o'lcham
What size shoes do you take—ten? – Qanday o'lchamdagi oyoq kiyim olasiz—o'nmi?
- ✓ **(Skinny) jeans** - (tanaga yopishib turadigan tor, tarang) jinsi
He was wearing a pair of skinny jeans in black denim. – U qora denimdan tikilgan bir juft tor jinsi kiyib olgandi.
- ✓ **Skirt** - ayollar yubkasi
What top are you thinking of wearing with that skirt? – U yubka bilan qanday ustki kiyim kiyishni o'ylayapsiz?
- ✓ **Style** - stil, did, estetika, elegantlik
She says I've got no style, but I think her clothes look bad. – Uning aytishicha mening hech qanday didim yo'q emish, lekin mening uning kiyimlari rasvo ko'rinadi.
- ✓ **Suit** - kostyum-shim
My brother has to wear a suit and tie to work every day. – Akam har kuni ishga kostyum-shim va bo'yinboq kiyishi shart.
- ✓ **Sweatshirt** - sviter, tolstovka, fufayka
Put a sweatshirt on after your run so you don't get cold. – Sovuqqotmaslik uchun, yugurishdan so'ng tolstovka kiyib oling.
- ✓ **Tie** - bo'yinboq, galstuk
Many companies ask men to wear a shirt and tie to work. – Ko'plab kompaniyalar erkaklardan ishga ko'ylak va bo'yinboq kiyishini so'raydi.

- ✓ **Trainers** - (bir juft) krossovka
He wears basketball trainers on and off the court. – U maydonda ham, maydondan tashqarida ham basketbol krossovkalari kiyadi.
- ✓ **Trend** - urf, ommalashuv
Spiky hair is the trend in hair styles these days. – Uchli soch turmagi hozirgi kunlarda ommalashgan (= urfda).
- ✓ **Trousers** - shim
The trousers of this suit fit well and are the right length. – Bu kostyumning shimi yaxshi mos tushdi va kerakli uzunlikda ekan.
- ✓ **T-shirt** - futbolka
Most teenagers wear jeans and T-shirts. – Ko'pchilik o'smirlar jinsi va futbolkalar kiyadi.

Verbs

- ✓ **Borrow** - vaqtinchalik olib turmoq
Can I borrow your suit? I have to go to a wedding. – Sizni kostyum-shimingizni vaqtinchalik olib tursam bo'ladimi? To'yga borishim zarur.
- ✓ **Dress** - kiyinmoq
Can your children dress on their own yet? – Farzandlaringiz hech kimni yordamisiz o'zlari kiyina olishadimi?
- ✓ **Fasten** - mahkamlanmoq, yopilmoq (kiyimga nisbatan)
The dress fastens with buttons all the way up the side. – Ko'ylak yon tomondan yuqoriga tugmalar bilan mahkamlanadi.
- ✓ **Fit** - o'lchami mos tushmoq
Those shoes don't fit you—they're too big. – Bu oyoq kiyimlar sizga mos tushmadi—ular haddan tashqari katta.
- ✓ **Fold** - taxlamoq, buklamoq
If you fold your clothes, they won't need ironing all the time. – Agar kiyimlaringizni taxlasangiz, ular har doim dazmollanishi zarur bo'lmaydi.
- ✓ **Follow** - kuzatmoq, amal qilmoq
Carl follows all the latest fashions. – Karl barcha oxirgi modalarni kuzatib boradi.
- ✓ **Match** - mos tushmoq
I bought you a blue tie to match your eyes. – Sizni ko'zlaringizga mos tushadigan bir moviy rangli bo'yinboq sotib oldim siz uchun.
- ✓ **Measure** - o'lchamoq
They measured my feet at the shoe shop and they were two sizes bigger! – Oyoq kiyim do'konida meni oyog'imni o'lchashdi va oyog'im ikki o'lcham kattaroq bo'lib chiqdi (oyoq kiyimdan)!
- ✓ **Suit** - yarashmoq
That scarf really suits you—the colour goes with your eyes. – U sharf sizga juda yarashdi—rangi ko'zlaringizga mos tushar ekan.
- ✓ **Tie** - (oyoq kiyim ipini) bog'lamoq

My little brother is three, so he can't tie his shoes. – Mening ukam uch yoshda, shunday ekan u oyoq kiyimining ipini bog'lay olmaydi.

- ✓ **Undo** - yechmoq, bo'shatmoq

It was hot, so I undid the top button on my shirt. – Havo issiq edi, shuning uchun men ko'ylagimning yuqori tugmasini bo'shatdim.

- ✓ **Wear** - kiyimoq

In this photo, I'm wearing a fancy dress costume. – Bu rasmda, men chiroyli libos kiyganman.

Phrasal verbs

- ✓ **Do up** - tugmasini taqmoq

Do up your coat to the top—it's cold out. – Paltosingizni yuqori qismigacha tugmasini taqing-tashqari sovuq.

- ✓ **Dress up (in)** - (ma'lum bir uslubda, stilda) kiyinmoq

Weddings are a chance to dress up in smart clothes. – To'ylar bejirim kiyimlar kiyish uchun imkoniyatdir.

- ✓ **Go with** - biror kiyim boshqa bir kiyimga yarashmoq = **match**

No, blue shoes do not go with green socks. – Yo'q, ko'k rangdagi oyoq kiyimlar yashil rangdagi paypoqlar bilan yarashmaydi.

- ✓ **Hang up** - ilmoq, osib qo'yimoq

Don't leave your shirt on the floor—hang it up. – Ko'ylagingizni polga tashlab ketmang—uni ilib qo'ying.

- ✓ **Put on** - kiyimoq

I put on my pyjamas and went to bed. – Men pijamamni kiydim va uyquga yotdim.

- ✓ **Put on** - tashkillashtirmoq (masalan, shou)

The designer put on a very successful fashion show. – Dizayner juda bir muvaffaqiyatli moda tomoshasini tashkillashtirdi.

- ✓ **Take off** - yechmoq

He took off his pyjamas and got dressed for school. – U pijamasini yechdi va maktabga borish uchun kiyindi.

- ✓ **Try on** - kiyib ko'rmoq: kiyim yarashgan yoki yarashmaganligini ko'rish uchun

Do you have a changing room where I can try on this shirt? – Bu ko'ylakni kiyib ko'rishim mumkin bo'lgan kiyim almashtirish xonasi bormi?

- ✓ **Zip up** - kiyim zamogini taqmoq

Zip up your jacket—it's very cold outside. – Kurtkangizning zamogini taqing-tashqari juda sovuq.

Phrases

- ✓ **As well as** - nafaqat ..., balki ...; dan tashqari

As well as coats, this shop has some nice handbags. – Paltolardan tashqari, bu do'konda chiroyli sumkalar ham bor.

- ✓ **Gain weight** - vazn orttirmoq

I gained weight and now I can't zip up these jeans. – Men vazn orttirdim, endi esa mana bu jinsi shimni zamogini taqolmayapman.

- ✓ **Get dressed** - kiyinmoq
Go and get dressed for school, kids. – Boringlar, maktabga kiyininglar, bolalar.
- ✓ **Have a/the feeling (that)** - (ni) sezmoq, ko'ngli sezmoq, tuyulmoq
I have a feeling that something great will happen today. – Bugun ajoyib bir narsa ro'y berishini ko'nglim sezyapti.
- ✓ **In front of** - ning to'g'risida, oldida, qarshisida
Joan stood in front of the shop window, looking at the jacket. – Jo'un do'kon derazasi oldida kurtkaga qarab turgandi.
- ✓ **Keep fit** - sog'lom, tetik va baquvvat holatini saqlamoq, jismoniy formasini yo'qotmaslik
He goes running three times a week to keep fit. – U jismoniy formasini yo'qotmaslik uchun bir haftada uch marta yugurishga chiqadi.
- ✓ **Put on make-up** - makiyaj qilmoq, o'ziga oro bermok, bo'yanmoq
She put on her make-up in front of the mirror. – U ko'zguning qarshisida o'ziga oro berdi.
- ✓ **The same as** - bilan bir xil
Your dress is exactly the same as mine. – Ko'ylagingiz meniki bilan quyib-qo'ygandek bir xil ekan.

Adjectives and adverbs

- ✓ **Casual** - odatiy
You don't have to wear a suit—just casual clothes. – Kostyum-shim kiyishingiz shart emas—shunchaki odatiy kiyimlaringizni kiying.
- ✓ **Check(ed)** - katak-katakli
Do you prefer this checked shirt to the striped one? – Yo'l-yo'l chiziqlisidan ko'ra katak-katakli ko'ylakni afzal ko'rasizmi?
- ✓ **Cotton** - paxtadan tikilgan
I prefer cotton socks because they're cooler than woolen ones. – Men paxtadan tikilgan paypoqlarni afzal ko'raman chunki ular junli paypoqlardan sovuqroq.
- ✓ **Denim** - denimdan tikilgan, jinsi materialli
Her blue denim jacket exactly matched her jeans. – Uning ko'k rangli jinsi kurtkasi jinsi shimiga quyib-qo'ygandek mos tushdi.
- ✓ **Dyed** - bo'yalgan, rang berilgan
I have a dyed green T-shirt and I wear it to environmental events. – Mening yashil rangda bo'yalgan futbolkam bor va men uni ekologik tadbirlarga kiyaman.
- ✓ **(Extra) large** - katta o'lchamdagi
My son's so big now that he wears tops that are extra large. – O'g'lim hozir shunchalik kattaki, u katta o'lchamdagi ustki kiyimlar kiyadi.
- ✓ **Leather** - teri, charm, ruscha: ko'jenniy material
Are those boots made of real leather or plastic? – Anavi etik haqiqiy charmdan tikilganmi yoki plastik materialdanmi?
- ✓ **Medium** - o'rtacha o'lchamli

Do you wear a medium shirt or a large one usually? – Siz odatda o'rtacha o'lchamli ko'ylak kiyasizmi yoki katta o'lchamlisinimi?

- ✓ **Modern** - zamonaviy
That shop sells really modern clothes—nothing old-fashioned. – U do'kon juda zamonaviy kiyimlar sotadi—urfdan qolgan narsa yo'q.
- ✓ **Old-fashioned** - eskicha, urfdan qolgan
Those trousers are so old-fashioned. My granddad has a pair! – Bu shim juda urfdan qolib ketgan. Bobomda bir juft (shunday shim) bor!
- ✓ **Plain** - oddiy, ortiqcha rasm yoki chiziqlarsiz
He wears a plain white T-shirt and blue jeans every day. – U har kuni oddiy oq futbolka va ko'k jinsi shim kiyadi.
- ✓ **Shiny** - yaltiroq
Her leather handbag is so shiny that I can see my face in it! – Uning charm sumkasi shu qadar yaltiroqki, men unda o'z yuzimni ko'ra olaman!
- ✓ **Smart** - bejirim, bashang, elegant
You look very smart in that suit, Gerry! – Bu kostyum-shimda juda bejirim ko'rinarkansiz, Jeri!
- ✓ **Spotted** - nuqta-nuqtali
You can't wear a spotted tie with a striped shirt! – Yo'l-yo'l chiziqli ko'ylak bilan nuqta-nuqtali bo'yinboq taqib bo'lmaydi!
- ✓ **Striped** - yo'l-yo'l chiziqli
His team wears a red and white striped shirt and white shorts. – Uning jamoasi qizil va oq chiziqli ko'ylak va oq shortik kiyadi.
- ✓ **Tight** - tor, qisib turadigan, tarang
This shirt's too tight around the neck—I can't breathe. – Bu ko'ylakni bo'yin qismi haddan tashqari tor ekan—nafas ololmayapman.
- ✓ **Trendy** - urf bo'lgan, ommalashgan; mo'dniy
He always looks trendy, like he stepped out of a fashion shop. – U doimo mo'dniy ko'rinadi, xuddi mo'da do'konidan chiqqandek.
- ✓ **Casually** - odatiy tarzda, norasmiy kiyimlar bilan
He was casually dressed in jeans and a polo shirt. – U odatdagidek jinsi shim va yoqali futbolka kiyib olgandi.
- ✓ **Comfortably** - qulay tarzda
She was comfortably dressed in a sweatshirt and old jeans. – U qulay tarzda sviter va eski jinsi shim kiyib olgandi.
- ✓ **Smartly** - bejirim tarzda, mo'dniy tarzda
Why can't you dress smartly and throw away those old jeans? – Nima uchun bu eski jinsi shimni axlatga tashlab yuborib, mo'dniy tarzda kiyinolmaysiz? (= sizga nima halal beradi bunday qilishingizga?)

Word formation

- ✓ **Blog** - blog yuritmoq

- Finley blogs about his life in Ireland. – Finley Irlandiyadagi hayoti to'g'risida blog yuritadi.*
- ✓ **Blog** - blog
You can read about my trip in my blog. – Sayohatim to'g'risida blogimda o'qishingiz mumkin.
 - ✓ **Blogger** - blogger
She's a blogger who writes about fashion shows. – U mo'da tomoshalari to'g'risida yozadigan blogger.
 - ✓ **Comfort** - yupatmoq, ovutmoq, tasalli bermoq
She comforted herself with the thought that it would soon be spring. – U tez orada bahor keladi degan o'y bilan o'zini o'zi ovutdi.
 - ✓ **Comfort** - qulaylik
Learn a new language in the comfort of your own home. – O'z uyingizning qulayligini tark etmagan holda (= onlayn) yangi til o'rganing.
 - ✓ **Comfortable** - qulay
I don't care about style-I just want to be comfortable. – Menga mo'daning farqi yo'q-men shunchaki qulay bo'lishni xohlayman.
 - ✓ **Uncomfortable** - noqulay
These shoes are really uncomfortable-do you have a bigger size? – Bu oyoq kiyim juda noqulay ekan-kattaroq o'lchamdagisi bormi sizda?
 - ✓ **Comfortably** - qulay tarzda
He was comfortably dressed in jeans and a sweatshirt. – U qulay tarzda jinsi shim va sviter kiyib olgandi.
 - ✓ **Uncomfortably** - noqulay tarzda
She slept uncomfortably and woke with a pain in her back. – U noqulay tarzda uxladi va belida og'riq bilan uyg'ondi.
 - ✓ **Fashion** - mo'da, urf
Long skirts have come into fashion again. – Uzun yubkalar yana urfga qaytdi.
 - ✓ **Fashionable** - urfdagi
Maurice wears fashionable clothes but they never look good on him. – Mo'ris urfdagi kiyimlarni kiyadi, lekin ular hech qachon uning ustida yaxshi ko'rinmaydi (= unga yarashmaydi).
 - ✓ **Long** - uzun
That dress looks a bit long to me. – Bu ko'ylak men uchun biroz uzun ko'rinadi.
 - ✓ **Length** - uzunlik
Those trousers aren't the right length-they're too short. – Bu shim kerakli uzunlikda emas-u haddan tashqari kalta.
 - ✓ **Meet** - uchrashmoq, ko'rishmoq
The three sisters rarely meet in person, but spend hours on the phone. – Uch opa-singil kamdan-kam shaxsan (= yuzma-yuz) ko'rishadilar, ammo telefonda soatlab vaqt o'tkazadilar.
 - ✓ **Meeting** - uchrashuv, uchrashish; majlis
The boss called a meeting at work today, so I have to wear a suit. – Boshliq bugun ish joyida majlis chaqirdi, shuning uchun men kostyum-shim kiyishim zarur.
 - ✓ **Model** - modellik qilmoq, kiyimlarni yoki mo'da mahsulotlarini o'zida kiyib ko'rsatmoq

Brad and Cindy are modelling chunky knitwear on the beach. – Bred va Sindi plyajda qalin to'qilgan kiyimlarni namoyish etishyapti.

Ralph's been modelling since he was 16. – Ralf 16 yoshidan beri modellik qilib keladi.

- ✓ **Model** - modelyer: kiyimlarni yoki mo'da mahsulotlarini o'zida kiyib ko'rsatuvchi ayol/erkak
She had a successful career as a fashion model. – U mo'da modelyeri sifatida muvaffaqiyatli karyera yuritgan.
- ✓ **Modelling** - modelyerlik sohasi, kiyimlarni yoki mo'da mahsulotlarini o'zida kiyib ko'rsatish
She would like a career in modelling. – U modelyerlik sohasida karyera qilishni xohlaydi.
- ✓ **Think** - o'ylamoq
I didn't think you liked sports. – Sizga sport yoqadi deb o'ylamagandim.
- ✓ **Thought** - o'y-fikr, mulohaza
You have clearly put a lot of thought into your costume. – Ko'rinib turibdiki, libosingizga ancha mulohaza kiritibsiz (= libos to'g'risida ancha o'ylagansiz).
- ✓ **Thoughtful** - boshqa insonlar haqida qayg'uradigan, mehribon
She's a very thoughtful girl and always remembers my birthday. – U rosa mehribon qiz va doimo mening tug'ilgan kunim yodida turadi.
- ✓ **Thoughtless** - bemulohaza, o'ylamay qilingan
It was thoughtless of you to lose my jacket! – Mening pidjakimni yo'qotib qo'yishingiz bemulohazalik bo'libdi!
- ✓ **Thoughtfully** - o'yga botib, xayol surib, o'ychan holda
She stood in front of the mirror, looking thoughtfully at the dress. – U ko'zguning qarshisida o'ychan holda ko'ylakka tikilib turdi.
- ✓ **Thoughtlessly** - bemulohaza ravishda, oqibatini o'ylamay
Thoughtlessly, I went out without a jacket and got very cold. – Men oqibatini o'ylamay kurtkasiz ko'chaga chiqib ketdim va juda sovuq qotdim.
- ✓ **Trend** - urf, ommalashuv
Linen is on trend again this summer. – Gazlama bu yozda yana urfda.
- ✓ **Trendy** - urf bo'lgan, ommalashgan, mashhur
She always wears trendy clothes from the most fashionable shops. – U har doim eng zamonaviy do'konlardan urfdagi kiyimlarni kiyadi.
- ✓ **Train** - shug'ullanmoq, mashq qilmoq
I train in the gym for two hours a day. – Men kuniga 2 soat sport zalida shug'ullanaman.
- ✓ **Trainers** - (bir juft) krasovka
Put on your trainers before you play football in the garden. – Bog'da futbol o'ynashdan avval krasovkangizni kiying.
- ✓ **Wool** - hayvon juni
How many balls of wool did you need to knit that sweater? – Bu sviterni to'qish uchun sizga nechta to'p jun kerak bo'ldi?
- ✓ **Woolen** - hayvon junidan to'qilgan
I don't like woolen clothes because they make me too hot. – Menga hayvon junidan to'qilgan kiyimlar yoqmaydi chunki ular meni haddan tashqari isitib yuboradi.

UNIT 27. PLACES

Nouns

- ✓ **Art gallery** - san'at galareyasi
There were some beautiful paintings at the art gallery. – San'at galareyasida bir qancha chiroyli suratlar bor edi.
- ✓ **Bank** - bank
I went into the bank to take out some money. – Men (bank hisob raqamimdan) ozgina pul yechib olish uchun bankka kirdim.
- ✓ **Building** - bino
I live on the fourth floor of that building on the corner. – Men burchakdagi anavi binoning to'rtinchi qavatida yashayman.
- ✓ **Bus/Metro/Petrol/Police/Railway/Train station** - avtobus bekati/metro bekati/benzin shaxobchasi/politsiya mahkamasi/temir yo'l bekati/vokzal (poyezd bekati)
Kate handed in the handbag she found at the police station. – Keyt topib olgan sumkasini politsiya mahkamasiga topshirdi.
- ✓ **Car park** - mashina qo'yish joyi, mashinalar turargohi
The car park was full, so she had to park on the street. – Mashinalar turargohi to'lib bo'lgan edi, shuning uchun u mashinasini ko'chaga qo'yishga majbur bo'ldi.
- ✓ **Castle** - qal'a
At the top of the hill is a 500-year-old castle. – Tepalikning eng yuqorisida 500 yillik qal'a bor.
- ✓ **City/Town centre** - shahar markazi
No cars are allowed in the city centre on Saturdays, so shoppers can walk around freely. – Shanba kunlari shahar markazida hech qanday mashinaga ruxsat berilmaydi, shunday ekan xaridorlar bemaolol yurishlari mumkin.
- ✓ **Cottage** - qishloq hududida joylashgan uycha, kottej
Our grandma lives in a tiny cottage in the Welsh countryside. – Bizning buvimiz Uels qishlog'idagi kichik bir kottejda yashaydi.
- ✓ **Countryside** - qishloq hududi, shahar tashqarisi: tabiat qo'yni
The countryside around here is full of rivers and forests. – Bu yerdagi qishloq hududi daryolar va o'rmonlarga to'la.
- ✓ **Flat** - kvartira, ko'p qavatli uy xonadoni
They live in a flat on the fifth floor. – Ular beshinchi qavatdagi bir kvartirada yashashadi.
- ✓ **Guesthouse** - kichik mehmonxona, pansionat
We stayed in a little guesthouse run by a German couple. – Biz Germaniyalik juftlik tomonidan yuritiladigan kichik bir pansionatda turdik.
- ✓ **Museum** - muzey
The children went to the castle museum to see the exhibits. – Bolalar eksponatlarni (= ko'rgazmaga qo'yilgan narsalarni) ko'rish uchun qal'a muzeyiga borishdi.
- ✓ **Office block** - ofis binosi: bir nechta kompaniyalarga tegishli bo'lgan ofislarni o'z ichiga oluvchi bino

John works on the sixteenth floor of that office block. – Jo'n anavi ofis binosining o'n oltinchi qavatida ishlaydi.

✓ **Park** - park

She takes her dog to the park to run every day. – U itini har kuni yugurishga parkka olib boradi.

✓ **Population** - aholi

The population of the town is 255,000. – Shahar aholisi 255,000 nafar.

✓ **Post office** - pochta

Can you go to the post office and send a parcel for me? – Pochtaga borib, mening o'rnimga pochta yubora olasizmi?

✓ **Shopping centre** - savdo majmuasi: turli-tuman mahsulotlar sotishga mo'ljallangan ko'plab do'konlardan tashkil topgan bo'ladi

We go to the shopping centre once a month and do all our shopping. – Biz bir oyda bir marta savdo majmuasiga boramiz va barcha xaridimizni qilib olamiz.

✓ **Square** - maydon

